جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

# Jadid

2024-yil 9-avgust
№ 33(33)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

## TANGRINING TOSHI

***Bir hikoya tegrasidagi o‘ylar***



“...Erkin A’zamning adabiyotdagi o‘ziga xos brendi: ilk satridanoq taniysiz! Taniysiz-u mutolaaga sho‘ng‘iysiz! Sarxushlantiradigan ichimlikdan totina boshlaganday, o‘tirgan joyingizda beixtiyor bir qo‘zg‘alib olasiz-da, bosh ko‘tarmay o‘qiyverasiz: avval mahliyo, bora-bora mubtalo bo‘lib qolganingizni o‘zingiz sezmaysiz...”

*(6-sahifada o‘qing).*

# “VATAN OBODLIGI UCHUN OVOZ BERAMIZ!”

**Markaziy saylov komissiyasi kotibi, yuridik fanlari doktori, professor Xudoyor MAMATOV bilan suhbat**






**– Xudoyor aka, mana 2019-yilda xalq tomonidan saylangan vakillik organlari deputatlarining vakolat muddati oxirlab, navbatdagi saylov jarayonlariga start berildi va Markaziy saylov komissiyasi faoliyati ham o‘z-o‘zidan qizg‘in tus oldi. Jarayonlarning ilk davri qanday kechmoqda?**

– Avvalo, mamlakatda siyosiy jarayonlarning qizg‘inlashuvi Markaziy saylov komisissiyasi oldiga o‘ta mas’uliyatli vazifani qo‘yadi. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining talablariga ko‘ra, amaldagi deputatlarning deputatlik muddati tugashi arafasida yangi saylov kampaniyasi boshlanganini e’lon qilish Markaziy saylov komissiyasining zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, u saylovdan kamida 90 kun oldin komissiya tomonidan e’lon qilinishi kerak. Konstitutsiyamizning 128-moddasiga asosan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlarining saylovi ularning vakolat muddati tugaydigan yilning oktyabr oyi uchinchi o‘n kunligi birinchi yakshanbasida o‘tkaziladi. Shundan kelib chiqib, MSKda yig‘ilish o‘tkazildi va vakolatimiz doirasida shu yilning 27-oktyabr kunini mamlakatimiz parlamenti hamda mahalliy kengashlar saylovlari kuni deb belgilab, saylov kampaniyasi 26-iyuldan boshlanganini rasman e’lon qildik.

**– An’anaviy va o‘z navbatida eng muhim savolimiz: bu yilgi saylovning avvalgilaridan farqi nimada? Saylov qonunchiligiga o‘zgartirishlar kiritilishiga sabab bo‘luvchi omillar haqida aytib o‘tsangiz.**

– Saylov qonunchiligida, albatta, o‘zgarishlar bo‘lib turadi. Bunda, birinchidan, rivojlangan davlatlarning tajribalari inobatga olinadi. Bundan tashqari o‘tgan saylovlarda erishilgan yutuq va kamchiliklar o‘rganilib, parlamentdagi eng faol sub’yekt sifatida siyosiy partiyalarning saylovchi oldidagi mas’uliyatini orttirish, uning jamiyatdagi o‘rnini oshirish ko‘zda tutiladi. Dunyoning rivojlangan demokratik davlatlarida sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgan, saylovchilarning xohish-irodasi, talablarini to‘liq qanoatlantirishi mumkin bo‘lgan, qolaversa, saylovlarni tashkil etish va o‘tkazishning eng yaxshi usullaridan andoza olinadi. Bu yilgi saylov o‘zgarishlarga boy bo‘lmoqda. Jumladan, joriy yil mamlakatimizda bo‘ladigan saylovlar O‘zbekiston tarixida ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi saylovlari aralash saylov tizimi asosida o‘tkaziladi. Bu esa o‘z navbatida saylovning mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy muhitda o‘tishidan darak beradi.

*(Davomi 3-sahifada).*

TAMADDUN



## ISLOMIY MOLIYA:

# Muxolif emas, muqobil tizim

***Keyingi vaqtlarda islomiy moliya, islom banki kabi atamalar ommaviy axborot vositalari, ilmiy, siyosiy doiralar va umuman, kundalik leksikonimizda tez-tez qo‘llana boshladi. Xalqaro tahlillarga qaraganda, ushbu yangi institutning an’anaviy moliya tizimidagi o‘rni va ulushi tobora oshib bormoqda. Xo‘sh, islomiy moliya tizimining mohiyati, falsafasi va hikmati nimada? U murosasiz raqobatchi sifatida an’anaviy tizimni siqib chiqaradimi yoki ikki model bir-birini to‘ldirgan holda zamondoshlarimizga tanlov imkoniyatini taqdim etadimi? O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi professori, akademik Nurislom To‘xliyev bilan shu kabi savollar tegrasida suhbatlashdik.***

**– Nurislom aka, iqtisodchi olim sifatida bizga dastavval islomiy bank-moliya tizimining ishlash prinsiplari va o‘zak xususiyatlari haqida ma’lumot bersangiz.**

– Suhbat uchun ham dolzarb, ham hali chuqur tadqiq etilmagan mavzu tanlangani ayni muddao bo‘libdi. Islomiy bank-moliya modeli haqida bizda bilim va ko‘nikmalar to‘liq shakllangan emas. Atigi bir nechta kitob chop etilgan va sanoqli dissertatsiya himoya qilingan xolos. Bu borada qonunchilik bazamiz ham zaif. Tizimning mazmun-mohiyati teran anglab yetilmagani sabab bo‘lsa kerak, uni zamonaviy bank-moliya modeliga qarama-qarshi qo‘yish hollari uchrayotir. Aslida har ikki tizimning maqsadi mushtarak. Iste’mol ehtiyojining to‘yingani yoki bozorda maqbul tovar va xizmatlar mavjud emasligi sabab jamiyatning ayrim a’zolarida ortiqcha pul paydo bo‘ladi. Ikkinchi tomondan esa boshqalarda istifoda etilmay turgan mablag‘larni olib ishlatishga ehtiyoj tug‘iladi. Shu tariqa vaqtincha ishlatilmayotgan puldan qanday usul va shaklda foydalanish masalasi kun tartibiga chiqadi.

So‘nggi vaqtlarda jahon bank-moliya tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida islom bank-moliya modelining ta’siri oshib boryapti. Jahon iqtisodiy inqirozi arafasida islom bank-moliya tizimining yalpi hajmi 758 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich 3,37 trillion dollarga yetdi.

Islom bank-moliya modeli islom iqtisodiyotining tarkibiy qismi bo‘lib, moliya muassasalari va mijozlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Tizimning o‘ziga xos jihati shundaki, u shariat ahkomlariga asoslanadi. Shariat esa musulmonlarning o‘zaro robitalarida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ustuvorlik beradi. Mazkur model tijoriy faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tavakkalchilikni tomonlar o‘rtasida mutanosib ravishda taqsimlashni ham nazarda tutadi.

*(Davomi 2-sahifada).*

IFTIXOR



# FAXRIYA

O‘g‘lonlari sher bo‘lib maydonga chiqqan xalqim,
Qizi atirgul bo‘lib maydonga chiqqan xalqim.
Olimp bellashuvida “o‘zbek” degan g‘ururni
Tomchi-tomchi ter bilan, shon bilan yig‘gan xalqim.

Bahodir, Hasanboyim, Lazizjon, Abdumalik,
Murodjon, Muzaffarjon qorako‘z, bug‘doyrangim.
Bari sherlar yurtidan, Polvon Pirlar yurtidan,
Ey, nomlari jarangim, el sha’nidir har jangim.

Diyora Keldiyorova keldi kurashga, debon,
Parij o‘ylanib qoldi, osmonning yulduzi – u.
“Biz qizlarga ishonch uchun rahmat!”, dedi Diyora,
Yurtboshimdan tabrik olgan, Yurtboshimning qizi – u.

Har bir mardning ortida mard otalar, onalar,
Mehri Zarafshondagi zarlardek oqqan xalqim.
Davlat, Ruslan, Shukurjon, Safina, Gulnozaxon,
Daryodek qalqqan xalqim, dengizdek balqqan xalqim.

Vatan uchun, or uchun dunyoni ilib otgan,
Palagi tozalarim, guldan andozalarim,
O‘zbekiston bayrog‘in o‘pib yuksalganlarim,
Beklar, xonzodalarim, nurdek ozodalarim.

Qaltis paytda qirg‘izga “Munarbek, sen zo‘r!” degan,
“Menga suyan, tur!” degan Akmal Hasanim mening.
Qardoshlarin qo‘llagan, duolarin yo‘llagan,
Mehriga chegara yo‘q manzil, maxzanim mening.


O‘zbekcha ovozaga tebrandi go‘zal Parij,
Eyfel minorasiga hayratlar taqqan xalqim.
“Temuriylar keldi”, deb, “Boburiylar keldi”, deb,
Baralla balqqan xalqim, Allohga yoqqan xalqim.

Chetdan sportchi olmadik, bari o‘zimizniki,
Biz birlashdik “Vatan”, deb oyoqqa qalqqan xalqim.
Butun dunyo havasda bizning birligimizga,
Olimpiya osmonida quyoshdek balqqan xalqim!

**Zulfiya MO‘MINOVA,**
**O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi**

MAVZUGA QAYTIB

**“Yangi O‘zbekiston” so‘zlari sodda, ammo o‘zida olam-olam ma’no mujassam etganini ko‘raman, ko‘nglimda iftixor hissini tuyaman, faxrlanaman, go‘yoki yangidan kashf etganday bo‘laman. “Mustaqillik”, “o‘zbek”, “xalq”, “tarix”, “zafarlar”... Nechog‘li ko‘ngilga ruh berguvchi, qanotlantirguvchi purma’no so‘zlar! Ularning har biri haqida bir kitob yozish mumkin, desak mubolag‘a emas. Bunday kitoblar yozilayotir ham.**



# TARIXIMIZNI TERAN BILAYLIK

Jafokash yurtimiz ko‘p bosqinchilarni ko‘rdi, har biri kelib, yurt egasi bo‘lgan xalqdan so‘ramay-netmay, o‘zicha unga yangi nomlar qo‘ydi, chunonchi, Transoksaniya, Movarounnahr, Chig‘atoy ulusi, degandek... Milliy qadriyatlar, madaniyat-u ma’naviyat poymol etildi, tarix toptaldi, tarixiy haqiqatlar xaspo‘shlandi...

Allohga hamd-u sanolar bo‘lsin, mana o‘ttiz uch yildirki, qadim Turon, O‘zbekiston yurtida mustaqillik shabadasi esmoqda, Yangi O‘zbekiston muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida qaddini baland ko‘tarib, jahonga chiqib bormoqda, dunyo hamjamiyatidagi o‘z o‘rnini mustahkam egallamoqda. Boshqacha aytganda, bugun o‘zbek o‘zbek bo‘lib jahonga bo‘y ko‘rsatmoqda, olamga keng nazar tashlamoqda.

Mustaqilligimiz bizga o‘zligimizni qaytarib berdi, tarixiy haqiqat qaror topdi, milliy qadriyatlar tiklandi. Bu qutlug‘ jarayon davom etmoqda.

“O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q” – bu haqiqat. Inchunin, tariximizni chuqur o‘qib-o‘rganmog‘imiz, kechagi kunni esdan chiqarmasligimiz, hur hayotning qadriga yetishimiz, uni asrab-avaylashimiz lozim.

*(Davomi 4-5-sahifalarda)*

Boshlanishi 1-sahifada.

## ISLOMIY MOLIYA:

# Muxolif emas, muqobil tizim

Islom bank-moliya modelining zamonaviy tarixiga nazar solsak, u o‘tgan asrning 50-60-yillarida Osiyo va Afrikadagi qator mamlakatlarning mustaqillikka erishishi, ulkan neft va gaz zaxiralarining topilishi hamda tabiiy boyliklarning eksport qilinishi natijasida vujudga keldi. To‘plangan jamg‘armalarni zamonaviy bank-moliya mexanizmi orqali tasarruf etish musulmon jamiyati ahkomlariga mos kelmasdi. Chunki shariatda iqtisodiyotning hayot-mamot masalasi bo‘lmish mulk mavzusida qat’iy qoida o‘rnatilgan: yer va osmon Allohga, yaylovlar, manbalar, suv, olov va tuz barchaga tegishli; Alloh oldida barcha baravar..



***Nurislom To‘xliyev, iqtisod fanlari doktori, akademik***

Inqirozlarga bardoshlilik, iqtisodiy xatar va qaltisliklarning tomonlar o‘rtasida ulushga muvofiq holda taqsimlanishi, real aktivlarga asoslanish islom moliyasining jozibadorligini oshiradi. Bu model Islom Hamkorlik Tashkilotiga a’zo bo‘lmagan mamlakatlarda ham ommalashayotgani, rivojlangan davlatlarda sukukdan (qimmatbaho qog‘ozlar) keng foydalanilayotgani ana shu jihat bilan izohlanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada 20 ta bank-moliya muassasasida islom darchalari aholiga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatmoqda. Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonda ham islom moliya tizimini joriy qilish bo‘yicha harakatlar olib borilmoqda. Malayziya, Indoneziya, Saudiya Arabistoni, Bahrayn va BAAni islom moliyasi rivojlangan mamlakatlar sirasiga kiritish mumkin. Eron va Sudanda ham bu jarayon ancha ilgari boshlangan edi.

Tig‘iz jarayonlar jahon bozorining uzviy bo‘lagi sanalgan mamlakatimizga ham kirib kelmoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda islom moliya tizimini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqti kelgani, bu ishga ITB va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlarini jalb etish zarurligini ta’kidlagan edi.

**– Islomda sudxo‘rlik man etilgan. Ammo tan olib aytish kerakki, foiz, ribo, sudxo‘rlik atamalari yangi davrda G‘arbdan kirib kelgan ajnabiy tushunchalar emas. Ya’ni asrlar mobaynida bu amaliyot musulmon jamiyatlarda yashab kelgan. Sizningcha, an’anaviy moliya tizimi bilan islomiy moliya modeli o‘rtasidagi asosiy farq nimalarda ko‘rinadi?**

– Albatta, ikki moliyaviy tizim o‘rtasida bir qator farqli jihatlar mavjud. Ular, eng avvalo, pulga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi. An’anaviy banklar pulni sotish, ya’ni mijozga foiz evaziga ma’lum muddatga berish mumkin bo‘lgan moliyaviy vosita deb hisoblaydi. Bu o‘rinda muvaqqat berilgan qarz mablag‘ini yo‘qotish xavfi minimal, chunki qarz ham, uning foizi ham loyihaning qanday natija bilan tugashidan qat’i nazar garov vositasida kafolatlanadi. Islom shariati esa foiz asosida moliyalashtirishni ijtimoiy adolatga zid deb biladi. Chunki oldi-berdi munosabati ishtirokchilaridan biri zarar ko‘rishi ham, katta foyda olishi ham mumkin. Har ikki holatda ham tarozi tomonlardan birining manfaatiga qarshi ishlaydi. Binobarin, islomiy banklar pulga moliyaviy mahsulot sifatida qaramaydi, loyihada ham o‘zini tijoriy hamkordek tutadi. Mantiq qonuniyati shu: agar xatar va yo‘qotish o‘zaro adolat bilan taqsimlab olinsa, u holda har ikki tomon ehtiyotkorlik bilan ish tutadi, yetti o‘lchab bir kesadi.

An’anaviy banklar foyda orqali idora etilsa, islomiy bank tizimi ruxsat va taqiq mezonlari orqali boshqariladi. Islom bank-moliya tizimida o‘ndan ortiq asosiy taqiqlar mavjud. Ulardan biriga ko‘ra, tavakkalchilik qilmay, xavf-xatarni zimmaga olmay, real iqtisodiy foyda yaratmay yoki shunga rag‘bat bermay daromad olish harom hisoblanadi. Bu qoida zamonaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda ham qo‘l keladi. Nazarimda, tadbirkor tavakkalchilik va mulkiy javobgarlik asosida, qonun doirasida tashabbus bilan faoliyat yurituvchi shaxsdir. Ya’ni chinakam ishbilarmon har qanday yo‘llar bilan emas, balki aynan yaratuvchanlik, tashabbuskorlik orqali daromad topadi. Shu bois ham yollanib ishlash, bankka mablag‘ qo‘yish, mulkni ijaraga berish, qimor, lotereya yoki meros orqali mo‘may daromadga ega bo‘lish tadbirkorlik sanalmaydi.

Islomda ribo, g‘arar, maysir va g‘abn mexanizmlari orqali nohalol tadbirkorlikning yo‘li to‘siladi. Boya islom bank-moliya modeli inqirozga bardoshli ekani haqida gapirgan edim. Bu nuqtayi nazar global iqtisodiy bo‘hron va koronavirus pandemiyasi tufayli kelib chiqqan inqiroz sharoitida, ayniqsa, yaqqol isbotini topdi. An’anaviy bank tizimida qarz va hosila oldi-sotdisiga ruxsat beriladi. Ya’ni moliyaviy bozor qatnashchisi qarzga olingan yoki unga tegishli bo‘lmagan aktivlar bilan bemalol savdo qila biladi. Bu hol moliyaviy chayqovchilikni keltirib chiqarishi, bozorda “pufaklar”ni yuzaga keltirishi mumkin. “Ko‘za kunda emas, kunida sinadi” deganlaridek, real iqtisodiyot bilan bog‘lanmagan “pufaklar” ham fursati kelib, albatta, yoriladi.

Islom moliyasida puldan asosan ayriboshlash vositasi, qiymat o‘lchovi sifatida foydalaniladi. Qarz savdosi, mulki bo‘lmagan yoki tasarruf etilmagan narsa-buyum savdosi man etiladi, real tijoratdan yiroq bitimlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu esa iqtisodiy subyektlar faoliyatini xavf-xatardan saqlaydi.

Islom banklari mijozlarga murobaha, salam, istisna, ijara (moliyaviy lizing) kabi oldi-sotdi bitimlariga asoslangan qarzli moliyalashtirish va qisman mushoraka va muzorabaga asoslangan ulushli (sherikchilikka asoslangan) moliyalashtirish orqali xizmat ko‘rsatadi. Ta’kidlash joizki, sherikchilikka asoslangan ulushli moliyalashtirishning hissasi islom banklarida ham yuqori emas. Bunga asosiy sabab – sherikchilikda uchraydigan ishonchsizlik, manfaatlar to‘qnashuvi, shaffoflik yo‘qligi va “yeng ichida”gi ishlardir. Ma’lumotlarga ko‘ra, an’anaviy bank krediti kabi qarzli moliyalashtirish, ayniqsa, murobaha va ijaraning hissasi islom banklari portfelida 80-85 foiz, ba’zida undan ham ko‘proqni tashkil etadi.




An’anaviy banklarda barcha xatar va tavakkalchiliklar qarz oluvchi, ya’ni tadbirkorning gardanida bo‘ladi. Loyiha qanday natija bilan tugashi, foyda ko‘rish-ko‘rmasligidan qat’i nazar, tadbirkor olgan kreditini foizi bilan qaytarishi shart. Qarzli moliyalashtirish ustuvor bo‘lgan islom moliya tizimida ham javobgarlik asosan tadbirkorga yuklanadi. Ammo sherikchilikka asoslangan moliyalashtirish darajasi oshib borishi bilan iqtisodiy tavakkalchiliklar tadbirkor bilan birga moliya muassasasiga ham o‘tadi. Pirovardida, xatarlar muvozanatli va adolatli taqsimlanadi, inqiroz davrida ishbilarmonlarning kasodga uchrash ehtimoli kamayadi.

“Apple”, “Amazon”, “Tesla”, “Microsoft”, “Google” kabi dunyoning eng nufuzli va yirik korporatsiyalari sherikchilikka asoslangan aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat yuritishi bejiz emas. Mazkur shirkatlarning aksiyalari kotirovka qilinadigan fond bozorlari negizini tashkil etishi inobatga olinsa, hissadorlik tamoyili ko‘p jihatdan maqbul va matlub ekani oydinlashadi. Demak, shaffof va samarali korporativ boshqaruvga ega aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish, tadbirkorlar va bank-moliya tizimini sherikchilik asosida ishlashga ko‘niktirish, umuman, xalqimizning iqtisodiy madaniyatini yuksaltirish kerak.

**– O‘zbekiston – dunyoviy davlat. Shu o‘rinda dunyoviylik dahriylik emasligini ta’kidlash zarur. Dunyoviy davlatda islomiy bank bilan an’anaviy bank yonma-yon, teng iqtisodiy sharoitda sog‘lom raqobat qilish imkoniga ega bo‘lishi lozim. Bu esa, birinchi navbatda, qonunchilik bazasini shakllantirishni talab etadi. Markaziy bank raisi o‘rinbosari Behzod Hamroyev Oliy Majlis Senatining joriy yil 18-apreldagi yalpi majlisida islom moliyasi to‘g‘risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilgani, ushbu hujjat yil oxirigacha parlamentga kiritilishini ma’lum qilgan edi. Ayting-chi, O‘zbekiston kapital bozorida islomiy iqtisod munosabatlari qonunan mustahkamlanishi uchun yana nimalar qilish kerak?**

– Yangi tizimning huquqiy asoslarini shakllantirish yo‘lida dastlabki qadamlar qo‘yilgan. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonun, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlar, “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi fondlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish choralari to‘g‘risida”gi, “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida xorijiy investorlar kengashini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlar va boshqa hujjatlar ushbu yo‘nalishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

To‘g‘ri ta’kidladingiz, dunyoviy davlatda har ikki bank modeli yonma-yon, raqobatchi sifatida faoliyat yuritishi kerak. Lekin mamlakatimiz kapital bozorida islomiy iqtisod munosabatlari hali alohida qonun yoki boshqa maxsus ma’muriy-huquqiy hujjat bilan mustahkamlanmagan. Mamlakatimizda joriy yil 27-oktyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari saylovi bo‘lib o‘tadi. Umid qilamizki, yangi tarkibdagi parlamentimiz paysalga solmay, “Kapital bozori to‘g‘risida”gi qonunni tayyorlab qabul qiladi. Bozor munosabatlarining asosi kapital ekan, kapital bozori munosabatlarini diversifikatsiya qilish davr talabidir. 2023-yil 11-sentyabr kuni Prezident farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham kamida 3 ta tijorat bankida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish vazifasi belgilanganini eslatib o‘tish lozim.

**– Yangilikni joriy etish hech qachon oson bo‘lmagan. Bu jarayonda o‘ziga xos ziddiyatlar kuzatilishi tabiiy hol. Xo‘sh, hozirgi sharoitda alohida islomiy banklar ochish mamlakatda shakllangan bank-moliya tizimi ishiga xalal bermaydimi? Ikki xil moliyaviy tizim baqamti qo‘llanishi uchun qay usul-uslubni tavsiya qilgan bo‘lardingiz?**

– Takror bo‘lsa-da, ta’kidlaymanki, an’anaviy va islom bank modellari bir-biriga butunlay zid tizimlar emas. Men ularni muxolif emas, muqobil tizimlar deb atagan bo‘lar edim. Sog‘lom raqobat bo‘lishi va ular baqamti faoliyat olib borishi kerak. Buni jahon tajribasida ham ko‘rmoqdamiz. Yana bir muhim nuqta. Hozirgacha kurrayi arzning biror davlatida islom moliya tizimi to‘laligicha joriy qilinib, an’anaviy tizimdan butkul voz kechilgani yo‘q. Hatto aholisining ko‘pchilik qismini musulmonlar tashkil etadigan Eron, Pokiston, Saudiya Arabistoni, BAA, Malayziya, Sudan kabi davlatlarda ham har ikki tizim baravar ishlamoqda.

Men ham dual usulni saqlab qolish tarafdoriman. Musulmon aholida islom bank-moliya tizimidan foydalanish talabi bormi, marhamat, bu ehtiyoj, albatta, qondirilishi lozim. Umumiy bank aylanmasida bu tizimning ulushi 1 foiz bo‘ladimi, 5-10 foiz bo‘ladimi, raqobatchi sifatida faoliyat yuritib, o‘zining iqtisodiy-moliyaviy samaradorligini namoyon qilsin. Davlat esa buning uchun kerakli shart-sharoit yaratib berishi lozim. Zero, iste’molchilarga tanlov imkoniyatini tuhfa qilish iqtisodiyotning oltin tamoyillaridan biri sanaladi.

Ikkinchi tomondan, aholi, korxonalarning vaqtincha foydalanilmayotgan mablag‘larini




an’anaviy banklar orqali ishlab chiqarishga yo‘naltirish, infratuzilma obyektlari, bog‘cha, maktab, shifoxonalar qurishga sarflash, undan keladigan daromadning bir qismini nochor oilalarni qo‘llab-quvvatlashga xarjlash kerak. Bu kabi choralar orqali an’anaviy banklar yanada ijtimoiylashib, islom banki tamoyillariga yaqinlashishi mumkin.

**– E’tiboringizni Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida qalamga olingan epizodga qaratmoqchiman. Qissada chor Rusiyasi davrida O‘rta Osiyoda tijorat banklari faol ishga kirishib, qozilarning vasiqasi o‘rniga veksellar muomalaga kiritilgani haqida so‘z boradi. Muallifning izohiga ko‘ra, veksellar ikki xil – muhlati belgilangan hamda muhlatsiz (xalq tili bilan aytganda, oq veksel) bo‘lgan ekan. Muhlati ko‘rsatilgan vekselni olgan shaxs belgilangan kunga qadar qarzini to‘lashga majbur, aks holda mol-mulki musodara etilib, kimoshdida sotilgan. Muhlatsiz vekselda esa qarzni qaytarib olish vaqti qarz beruvchining inon-ixtiyorida qoldirilgan, ya’ni “topar oyi”da to‘lashi mumkin. Amalda esa bu “kambag‘alni urmay, so‘kmay, to‘nini yirtish” usuli bo‘lgan. Ana shu moliyaviy hiylaga uchgan omi odamlar bir kunda bor-budidan mosuvo bo‘lgani “Sudxo‘rning o‘limi”da ta’sirli tasvirlangan.**

**Nurislom aka, nima deb o‘ylaysiz, faqat imom domlalarimizning mav’izalari-yu ijtimoiy tarmoqdagi reklamalar orqali islomiy moliya haqida tasavvurga ega bo‘lgan yurtdoshlarimiz yana “oq veksel” qopqoniga tushib qolmasmikan? O‘zi shundoq ham internetdagi shovvoz va uchar toifa bitkoin, elektron birja, obligatsiya kabi tumtaroq atamalar bilan chalg‘itib, kunda-kunora sodda odamlarni chuv tushirmoqda...**

– Boya xalqimizning iqtisodiy madaniyati, savodxonligini oshirish kerakligi haqida bejiz gapirmadim. Taassufki, ko‘plab odamlar moliyaviy bilimsizlik, laqmalik, ishonuvchanlik, ba’zida esa ochko‘zlik sabab “moliyaviy piramida”lar, turfa nom-u niqobdagi firibgarlar to‘riga ilinib, jiddiy ziyon-zahmat ko‘rmoqda. Aksar hollarda atayin murakkab tuzilgan shartnoma va bitimlardagi mavhum, tushunarsiz ma’lumotlar, talablar ham odamlarni chalg‘itadi. Islom dini bir tomonning boshqa tomonga har qanday ko‘rinishda zarar yetkazishini man etadi.

Qanday modeldan foydalanishdan qat’yi nazar, tomonlar o‘rtasidagi bitimlarda mavhumlik, noaniqlikka yo‘l qo‘ymaslik kerak. Har bir inson unga taklif qilinayotgan hujjat bilan puxta tanishishi, kerak bo‘lsa, soha mutaxassislaridan yordam so‘rashi lozim. Shartnoma bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarda asosiy hujjat hisoblanadi. U puxta ishlangan, ikki tomonni ham qoniqtiradigan darajada bo‘lishi shart. Hujjatning har bir bandi bilan huquqshunos ishtirokida tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir. Banklar ko‘pincha o‘z manfaatini ilgari surgan holda “trafaret” – bir andazadagi shartnomani taqdim qiladi. Tadbirkorlikning tabiati, imkoniyatlari esa har xil. Yuzaki shartnoma bajarilmay qolib ketishga mahkum. Boz ustiga, u tadbirkorga moliyaviy zarar keltirishi mumkin. Atoqli rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev aytganidek, oramizda hatto o‘zining pasportini ham oxirigacha o‘qishga erinadigan zamondoshlarimiz talaygina. “Tekin pishloq qopqonda bo‘ladi” degan ko‘hna naqlga ko‘ra odam aldanib qolmaslik uchun zukko, hushyor bo‘lmog‘i shart.

Islom bank-moliya tizimi g‘ararni taqiqlash mexanizmi orqali mijozlar bilan munosabatlarda mavhumlik, noaniqlik, hiyla-nayrang kabi harakatlarning oldini oladi. G‘ararning taqiqlanishi islom moliyasini spekulyativ derivativlar (hosilaviy qimmatli qog‘ozlar) tufayli paydo bo‘ladigan jiddiy tizimli xatarlardan himoya qiladi. Umuman, islom bank-moliya tizimi iqtisodiy “pufak” va inqirozlarni yuzaga keltiruvchi haddan ziyod moliyaviy chayqovchilik amaliyotlarini xushlamaydi. Shuningdek, boyliklarning adolatsiz ravishda taqsimlanishi, jamiyat a’zolari o‘rtasida salbiy munosabatlar ildiz otishiga olib boruvchi qimor o‘yinlarini ham man etadi.

**– Fikrlaringizdan shu narsa anglashilmoqdaki, islomiy moliya shunchaki oldi-berdi munosabati emas, balki iqtisodiy tarbiya vositasi ham hisoblanadi. Sheriklik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, hamkorning yaxshi va yomon kunlarida yelkadosh bo‘lish tizimning axloqiy asosini tashkil etarkan. Yurtdoshlarimizning moliyaviy savodxonligi, ruhiy-axloqiy muhitimiz holatini yaxshi bilgan ziyoli, olim sifatida islomiy moliya tizimi yaqin yillarda rivojlanib ketishiga ishonasizmi?**

– Yangi tizimni ko‘z ochib yumguncha, birdaniga joriy etish amrimahol. Buning uchun fursat, mehnat talab etiladi. Davlatning bunga xayrixohligi yetarli emas. Soha uchun malakali kadrlar korpusini shakllantirish, asosiysi, islom bank tizimining afzalligi, ishonchliligi va adolatliligini butun bo‘y-basti bilan ko‘rsatish kerak bo‘ladi.

Islom ta’limotida hamisha kapitalizmga xos individualizm, xudpisandlikdan farqli o‘laroq, ma’naviy va ijtimoiy yo‘nalish ustun ahamiyat kasb etgan. Islom bank-moliya modeli ham insonning moddiy ehtiyojlari barobarida ruhiy, ma’naviy va ijtimoiy talablarini hisobga oladi. Shu bilan birga, bu model erkin bozor qonuniyatlarini butunlay inkor etmagan holda, yulg‘ichlik, chayqovchilik va adolatsizliklarga qarshi muayyan ma’naviy-axloqiy cheklov-chegara o‘rnatadi, taqiqlar qo‘yadi. Bu jihatdan u o‘z falsafasi, qadriyatlariga ega bo‘lgan tizimdir. Xalqimiz islom moliyasining biz sanagan talablarini teran anglab yetsa, unga musulmon turmush tarzining bir bo‘lagi deb qarasa, yangi yo‘nalishga shunchaki urf vajidan emas, balki ma’naviy ehtiyoj sifatida ergashsa, tizim yurtimizda rivojlanib ketishi shubhasiz.

**– Nurislom aka, mulohazalaringizni tinglab, shunday xulosaga keldim: islom moliyasi iqtisodiyotimizning bir bo‘lagi sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun huquqiy va iqtisodiy omillarning o‘zi kamlik qiladi. Birinchi navbatda, halol rizq talabida bo‘lish, omonatdorlik, haromdan hazar qilish, bir so‘z bilan aytganda, diyonatli inson bo‘lib yashash har bir vatandoshimizning hayotiy maslagiga, a’moliga aylanishi kerak. Buning uchun jamiyatning ziyoli qatlami niyatda, so‘z va amalda birdamlik ko‘rsatishi zarur. Samimiy suhbat uchun tashakkur bildiramiz.**

**Olimjon DAVLATOV suhbatlashdi.**

# “VATAN OBODLIGI UCHUN OVOZ BERAMIZ!”

Boshlanishi 1-sahifada.

Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi deputatlarining 75 nafari bevosita majoritar tizim asosida, ya’ni saylovchilar o‘zlariga maqbul nomzodlarga ovoz berishi yo‘li bilan, qolgan 75 nafari esa proporsional tizim – siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida saylanadi.

Ma’lumki, har bir siyosiy partiya muayyan okrugdan deputatlikka nomzodlarini jamiyatda o‘z mavqeyiga ega, obro‘-e’tibor qozongan, salohiyatli kadrlar orasidan izlaydi. Chunki deputatlik o‘rni uchun kurashda nomzodning kuchli bo‘lishi katta ahamiyat kasb etadi. Oldingi saylovlarda qonunan 50+1 yoki undan yuqori ovoz olgan nomzod deputatlikka saylanardi va kuchli raqobatchilar orasida nomzodlarimizning bu natijaga erishishi qiyin kechar edi. Buning oqibatida o‘z-o‘zidan ikkinchi tur saylovlarni o‘tkazishga majbur bo‘lardik. Bitta saylov okrugidan eng yuqori ovoz olgan ikki nomzod uchun ikkinchi tur saylov tashkil etilar, bu ortiqcha vaqt, sarf-xarajatga va saylovchilarning ovoragarchiligiga olib kelar edi. Shunday holatlarga barham berish uchun dunyo siyosatining ilg‘or tajribalaridan “nisbiy ko‘pchilik ovozi” prinsipi qo‘llanilib, bitta o‘rin uchun kurashayotgan besh nomzoddan boshqalariga nisbatan ko‘p ovoz olgani deputatlikka saylanadi. Ya’ni uning necha foiz ovozga ega bo‘lganiga ahamiyat berilmaydi.

2019-yildagi saylov jarayonlarida, birgina Qonunchilik palatasi deputatlari saylovida mamlakatimiz bo‘yicha 25 ta saylov okrugida qayta saylov tashkil qilingan. Bu, albatta, davlat byudjetiga ham qo‘shimcha xarajat keltirgan. Yana bir tomoni, takroriy saylovlar asosiy ovoz berish o‘tganidan kamida ikki haftadan so‘ng tashkil etilishi kerak va uning javobi e’lon qilinishi uchun yana o‘n kun o‘tadi. Anglaganingizdek, ikkinchi tur saylovga o‘tish vakillik organlarini shakllantirish, ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish va yangi saylangan deputatlarning o‘z vazifalariga kirishishlari uchun ham bir to‘siq bo‘lar edi. Bu yilgi saylovda birinchi turdayoq deputatlar egallagan ovoz to‘liq e’lon qilinadi va yangi deputatlik korpuslari saylov natijalari rasman e’lon qilingan kunning ertasi kuniyoq ish boshlaydi.

Saylov tizimiga ham raqamli texnologiyalar joriy etish masalasi yanada kengaytirildi. “E-saylov” axborot tizimi ishga tushirildi. Natijada murojaatlarni ko‘rib chiqish va javob qaytarish ham elektron shaklda operativ amalga oshiriladigan bo‘ldi. Bu tizimda 130 mingdan ortiq saylov komissiyalari a’zolari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, 30 mingdan ortiq deputatlikka nomzodlarga tegishli qisqacha ma’lumotlar va ularning dasturlari, shuningdek, 70 mingga yaqin mahalliy va xalqaro kuzatuvchilarga oid ma’lumotlar, 1200-1300 atrofida bo‘lishi kutilayotgan, to‘liq akkreditatsiyadan o‘tgan mamlakatimiz va xorijiy ommaviy axborot vositalari xodimlarining ma’lumotlari joylashtirib boriladi.

**– Dunyo miqyosida gender tenglik masalasi bugungi kunning tendensiyasiga chiqdi va bu bizning siyosatimizga ham kirib keldi. Bu yilgi saylanadigan deputatlarning necha foizini xotin-qizlar tashkil etishi kutilmoqda?**

– O‘tgan saylovda siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlarning kamida 30 foizini xotin-qizlar tashkil qilgan edi. Bu yilgi saylovda esa ham bir mandatli saylov okruglari, ham siyosiy partiyalar taqdim etadigan nomzodlar ro‘yxatining kamida 40 foizini xotin-qizlar tashkil etishi lozim.

**– Xudoyor aka, aralash saylov tizimi haqida aniqroq ma’lumot berib o‘tsangiz.**

– Aralash saylov tizimi degani bu saylovning ikkita, ya’ni majoritar-proporsional tizimlarni uyg‘unlashtirgan demokratik saylov usulidir. Mojaritar saylov tizimida har bir saylovchi bir mandatli saylov okruglaridan ko‘rsatilgan siyosiy partiyalarning nomzodlariga ovoz beradi. Proporsional saylov tizimida mamlakat hududi yagona saylov okrugi hisoblanib, saylovchilar saylov uchastkalariga borganda siyosiy partiyalarga ovoz berishi nazarda tutiladi. Yanayam soddaroq tushuntiradigan bo‘lsak, Oliy Majlis Qonunchilik Palatasidagi 150 ta deputatlik o‘rni va mandati misolida olsak, har bir saylov okrugidan bittadan deputat saylangan. Bundan oldingi saylovlarda 150 ta bir mandatli saylov okruglari tuzilgan. Endilikda esa ikki: mojaritar va proporsional tizimga ajralayotgani uchun mamlakat bo‘yicha 150 ta emas, 75 ta saylov okrugi tashkil etiladi va siyosiy partiyalardan har bir saylov okrugidan bittadan nomzod ko‘rsatish talab etiladi. Mamlakatimizning qolgan hududi yagona saylov okrugi hisoblanib, proporsional saylov tizimida qolgan 75 ta deputatlik o‘rni uchun 75 nafardan 100 nafargacha deputatlikka nomzodlar ro‘yxati shakllantiriladi va saylovchilar tomonidan siyosiy partiyalarga ovoz berish orqali ushbu deputatlik o‘rinlari taqsimlanadi. Buning uchun, 75 ta deputatlik o‘rni yuz foizga teng deb olinadi, siyosiy partiya saylov kuni ovoz berish uchun ishtirok etgan saylovchilarning qancha miqdorda ovozini olgan bo‘lsa, shunga mutanosib ravishda deputatlik o‘rniga ega bo‘ladi. Aytaylik, saylovda ishtirok etayotgan A partiya ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning qirq foiz ovozini olgan bo‘lsa, ushbu partiya 75 ta deputatlik o‘rnining qirq foizi, ya’ni 30 nafar deputatlik o‘rniga ega bo‘lgan hisoblanadi.

**– Siyosiy partiyalar ovozlarni taqsimlashda ishtirok etadimi?**

– Albatta, ishtirok etadi. Qachonki, saylov kuni ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning eng kamida 7 foiz ovozini olsagina, ovozlarni taqsimlashda qatnashadi. Agarda 7 foiz ovoz ololmasa, bu siyosiy partiya baryerdan pastda qolib ketadi, ya’ni mandatga ega bo‘lmaydi.




**– Bu yilgi saylovlarda MSK tomonidan saylovoldi tashviqot ishlariga qancha mablag‘ ajratiladi?**

– Saylovoldi tashviqotlarga ajratiladigan mablag‘ miqdori siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonidan kelib chiqib aniqlanadi. Bu saylov kunidan kamida 35 kun oldin, deputatlikka nomzodlar MSK tomonidan ro‘yxatga olinganidan so‘ng aniq bo‘ladi. Markaziy saylov komissiyasi saylov smetasida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqot tadbirlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag‘larni hamda har bir deputatlikka nomzodning saylovoldi tashviqoti uchun ketadigan xarajatlarni inobatga olgan holda mablag‘larni taqsimlaydi. Moliyalashtirish ishlariga hali biroz vaqt bor.

**– Xudoyor Teshayevich, saylovoldi tashviqot jarayonlarida deputatlikka nomzodlar ba’zi jiddiy huquqiy xatoliklarga yo‘l qo‘yishi ham mumkin. Agar shunday vaziyat yuzaga kelsa, MSK nomzodga yoki nomzodni ko‘rsatgan siyosiy partiyaga nisbatan chora ko‘radimi? Umuman, shunday holat yuz berganmi?**



– Agarda nomzod saylovoldi tashviqotlarda qonun talabini buzadigan bo‘lsa va raqib tomondan sudga shikoyat arizasi bilan chiqilsa, sud tomonidan o‘rganib chiqiladi. Faktlar isbotlansa, nomzodga nisbatan ma’muriy javobgarlik qo‘llaniladi. Agar siyosiy partiya ham bundan norozi bo‘ladigan bo‘lsa, MSK ishni vakolat darajasida o‘rganib, kerak bo‘lsa nomzodni nomzodlik huquqidan mahrum qiladi. O‘tgan saylovda bu holat kuzatilgan emas.

**– Saylov kampaniyasining eng muhim komponenti – ochiqlik va oshkoralikni ta’minlash. Sizningcha, 2024-yilgi saylovning shaffoflik darajasi qanday bo‘ladi?**

– Saylov kampaniyasini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jarayonlar to‘liq yoritilishiga erishish uchun MSK huzurida Matbuot markazi tashkil etildi. Ushbu markaz orqali butun dunyoga, xalqimizga markaziy, hududiy va quyi saylov komissiyalari tomonidan barcha jarayonlar ochiq, oshkora yoritib boriladi. Brifinglar, press-turlar o‘tkazilib, saylovchilar har kungi yangiliklardan boxabar qilib turiladi.

**– Bu yilgi saylovlarning “Mening tanlovim – obod Vatanim” shiori ostida o‘tkazilishi e’lon qilindi.**

– Saylov kampaniyasining shu shior ostida ish olib borishidan maqsad, saylovchilarni saylov jarayonlariga yanada faolroq jalb etish, saylovning xalqimiz hayotida, mamlakatimiz rivojida naqadar muhim ekanligini anglatish. Har bir saylovchi saylov uchastkasiga kelganida u o‘zining tanlovini amalga oshiradi. O‘zi eng munosib deb topgan nomzodni, eng faol deb bilgan partiyani tanlaydi. U mana shu tanlovda adashmaydigan bo‘lsa, shu Vatanning obodligi uchun ovoz beradi. “Mening tanlovim – obod Vatanim” mamlakat siyosatida markazda turgan g‘oya – “Hamma narsa inson qadri uchun” shiorining mantiqiy davomi bo‘lib xizmat qiladi.

**– Parlament bu mamlakatning yuzi hisoblanadi. Shu ma’noda, Parlamentda birinchi navbatda professional deputatlar korpusini shakllantirish kerak. Buning uchun bo‘lajak deputatlardan nimalar talab etiladi?**

– Parlament tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun huquqiy asos ekanini hisobga olsak, uni davlatning kelajakka tanlagan yo‘lini ko‘rsatib turuvchi mayoq deb bilishimiz kerak. Deputatlik uchun kurash olib borayotgan har bir shaxs “Men Parlamentga kelyapman, Vatanimning tinchligini, taraqqiyotini, xalqimning turmushi yanada farovon bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladigan muhim qonunlarni ishlab chiqishda ishtirok etaman”, degan tuyg‘uni chuqur his etishi zarur bo‘ladi. Shuningdek, har bir siyosiy partiya ham nomzod tanlayotganda bunga e’tibor qaratishi shart. Deputatlik korpusi o‘z sohasining, o‘z kasbining bilimdoni, ham ilmiy, ham amaliy tajribasi bor, so‘zi va ishi bilan elni oldiga tushgan odamlar bo‘lishi lozim.

**– Saylovchilari bilan yuzma-yuz keladigan mana shu dolzarb jarayonlarda siyosiy partiyalar nimalarga tayyor turishi kerak, deb o‘ylaysiz?**

– Avvalo, olti mingga yaqin deputatlik o‘rni uchun o‘ttiz mingga yaqin nomzod orasidagi kurash, albatta, keskin bo‘ladi. Oldin bevosita uchrashuvlar orqali boshlangan saylovoldi targ‘ibot jarayonlari keyinchalik gazeta, radio, televideniyega ko‘chadi. Hozirgi kunda esa axborot maydonida ijtimoiy tarmoqlarning salmog‘i katta. Bu siyosiy partiyalarning ham, nomzodlarning ham zimmasiga o‘ta katta mas’uliyat yuklaydi. Chunki nomzod elning oldiga chiqib gapirishi kerak bo‘ladi va har bir gapining javobi saylovchilari tomonidan so‘raladi. Xalq o‘zi saylagan deputatidan berilgan va’daning natijasini so‘raydi. Bu – har bir so‘zning mas’uliyati bor degani. Mazkur talab o‘z navbatida bo‘lajak deputatning faoliyatini yo‘lga qo‘yishida ijobiy ta’sir o‘tkazadi, agar u haqiqatan tirishqoq, tajribali va tashabbuskor inson bo‘lsa.

Saylovchilarimizning ham siyosiy madaniyati yuksalib, ijtimoiy faolligi ortib bormoqda. Qolaversa, xalqning har bitta davlat organidan, mansabdor shaxslardan, fuqarolik jamiyati institutlaridan, siyosiy partiyalardan kutayotgan natijalari va qo‘ymoqchi bo‘layotgan talablari ham bor. Siyosiy partiyalarga saylovchi bilan uchrashuvda, muloqotlarda keskin savol-javoblar bo‘lishi aniq. O‘tgan saylovda e’lon qilingan dasturlardagi siyosiy partiya ilgari surgan g‘oyalar nima edi-yu, shuning qanchasi bajarildi, qaysilari qolib ketdi? Ana shu bajarilmay qolgan ishlar, qolib ketgan takliflar yuzasidan qizg‘in muhokamalar bo‘lishi tabiiy. Demakki, siyosiy partiyalarimiz xalq bilan, saylovchilari bilan yuzma-yuz turishga tayyor bo‘lib, real demokratik kurashlarga, sog‘lom raqobatga bel bog‘lashlari kerak.

**Muhayyo PIRNAFASOVA suhbatlashdi.**


FIKR

# O‘ZBEKLARNING SOVET DAVRIDAGI ASL MADHIYASI

**Mustabid tuzum hukmronligi eng cho‘qqiga chiqqan paytlarda ham o‘zbeklar madhiyasiz qolmagan. Bizning norasmiy madhiyamiz bo‘lgan.**

Har kuni tongda radio, televideniyedan beriladigan O‘zbekiston SSRning rasmiy madhiyasi shunchaki majburiyat yuzasidan, yanayam o‘zbekcharoq aytganda, quloqqa osilgan lag‘mon qabilida eshitilgan. Xalq bu zo‘ravon matn va musiqaga, qullikni sharaflagan “zanjir tovushlari”ga o‘z qalbidan joy bermagan.

Ha, o‘sha og‘ir yillarda ham bizning norasmiy madhiyamiz bo‘lgan. “O‘zbegim” va “O‘zbekiston Vatanim manim” she’rlari, maxfiy tarzda bo‘lsa-da, o‘zbek xalqining madhiyasi darajasiga ko‘tarilgan va eng qaltis davrda millatni birlashtirgan, bukchayib qolgan qaddini birdan ko‘targan. Shuning uchun bu ikki she’r bajargan vazifani Zarafshondan tashib ketilgan oltinlar bilan ham o‘lchab bo‘lmaydi.







Bu she’rlar o‘zbekka o‘zligini namoyon qilgan va aslan kimligini eslatib qo‘ygan edi. Abdulla Oripovning nomdor bag‘ishlovidagi “O‘zbekiston!” degan hayqiriq Vatan nidosiday yangragan, Erkin Vohidovning mashhur qasidasidagi “O‘zbegim!” degan chaqiriq avlodlar tomiridagi daryoni uyg‘otgan. Shuning uchun bu she’rlar xalq qalbining ovoziga aylangan. Shuning uchun bu ikki she’r qoshida avlodlar qarzdor.

She’riyat maydoniga navbatma-navbat kirib keladigan shoirlar avlodlari Vatan va millat haqida shunday buyuk she’rlarni o‘ziga xos, yangicha ruhda yaratish orzusida bo‘lishlari kerak. Bunday she’rlarga hamma davrlarda katta ehtiyoj bor.

**Eshqobil SHUKUR**

MUSHOHADA

# KO‘KTURK ALIFBOSI


**Sovet mafkurachilari uchun mustabid xalqlarni kamsitish, yerga urish, hatto haqoratlash oddiy kundalik yumush edi. Xalqni o‘zagidan, ildizidan ayirish maqsadida soxta tarix to‘qilar, mashhur allomalari, sarkardalari qora bo‘yoqlarda tasvirlanardi. Albatta, o‘tmishidan bexabar g‘ofil xalqni boshqarish oson, o‘z yo‘rig‘iga yurgizish qulay bo‘ladi, deb hisoblashgan. Ayniqsa, uch ming yillik tarixga ega o‘zbek xalqini ommatan savodsiz deb e’lon qilish zamirida ham ana shunday siyosiy maqsad yotardi. O‘quvchilik yillarimda bu siyosatning mohiyatini tushunmaganimdan bo‘lsa kerak, tarix darsligini o‘qib ayrim savollar tug‘ilar edi.**



Xo‘sh, turkiy xalqlarning, jumladan, o‘zbeklarning qadimda o‘z alifbosi bo‘lganmi? Ha, oromiy yozuvida bitilgan toshbitiklar qadimda o‘z alifbomiz bo‘lganini tasdiqlaydi. Yaqinda xorazmlik tarixchi Latofat Abdrimova tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan ma’lumotdan uzoq o‘tmishdagi ajdodlarimiz ko‘kturk alifbosini ham yaratganini bilib qoldim.

“Ko‘kturk alifbosi turk tilining eng qadimgi yozuv tizimidir, – deb yozadi Latofat Abdrimova. – O‘ngdan chapga yoziladi. U jami 38 ta harfdan, jumladan, 4 ta unli, 25 ta undosh va 9 ta diftongdan iborat bo‘lib, ko‘pchilik undosh harflar qalin va ingichka unlilarga ega. O‘rxun bitiklari shu alifbo bilan yozilgan.

Qizig‘i, Xorazmning so‘nggi xonlari ushbu alifboni bilgan va o‘rganganlar. Saroyda 85 nafar tarjimon faoliyat yuritgan.




Demak, bu alifbodan ham foydalanilgan. Ruslar saroy kutubxonasidan olib ketgan ma’naviy xazina orasida yana qanday bebaho merosimiz bo‘lgani haligacha noma’lum”.

Yana bir gap: tarixiy manbalarda keltirilishicha, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z alifbosi – “Xatti boburiy”ni yaratib, undan unumli foydalangan. Ammo bu alifbo arab yozuviga asoslanganini ta’kidlash joiz.

Xo‘sh, tengsiz aqlu zakosi bilan o‘z alifbosini yaratgan xalq savodsiz bo‘lishi mumkinmi?

**Shuhrat AZIZOV**

# TARIXIMIZNI TERAN

Boshlanishi 1-sahifada.

Tarixni o‘rganganda, o‘tmishda millat, Vatan, Vatan farzandlari sha’niga bo‘lgan har xil noxolis munosabatlarni, pisandsizliklarni ko‘rib, tabiiyki, ko‘ngil ozor tortadi. Tarixda ko‘p xatolar o‘tgan, agar tuzatish mumkin bo‘lsa, uni xato emas, adashish, deb qaramoq kerak. Bir misol. Amir Temur To‘xtamishxon bilan jangga borayotib, Ulutovda katta xarsangtoshga safar mazmunini o‘yib yozdiradi. Shunda bobomiz o‘zini “Turon sultoni” deb ataydi. To‘g‘ri, yurtimiz Turon, Amir Temur bu davlatning buyuk hukmdori. Ammo rasmiy tarixda “Turon davlati” emas, “Temur davlati” o‘rganib kelinmoqda. Natijada, buyuk davlatimiz haqida boshi yo‘q-davomi yo‘q, yolg‘iz bir kishining davlati deganday taassurot paydo bo‘ladi. Buning sababi, tariximizni ovrupoliklar yozganida, ular g‘araz bilan yurtimizni parokanda ko‘rsatish niyatida Turon mamlakatida hukm surgan davlatlarni alohida-alohida, go‘yo ularning bir-biriga aloqasi yo‘qdek, bo‘ltak-bo‘ltak holda talqin etishadi. Holbuki,




*Abdumannon MUHAMMAD olgan suratlar.*

o‘zbek davlatchilik tarixi uch ming yillarga boradi. Nega Turon yurtida Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Xorazmshohlar, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar va hokazo davlatlarimiz tarix fanida bir-biriga bog‘lab o‘rganilmaydi? Maqsad, Turon yurtini olaquroq qilib ko‘rsatish, oqibatda tarixni, millatni kamsitishdan iborat. Turon, Turkiston ekanini bilib turishsa-da, ayrim ovrupolik tarixchilar yuqoridan qarashib, boshqa nomlar qo‘yishadi, bizlarni yagona millat deb hisoblashmaydi ham, o‘nlab qavmlar nomlarini keltirib, manzarani xiralashtirish payida bo‘lishadi. Shunday munosabatni tilimizga nisbatan ham qo‘llaganlar.

Men bu mavzuda ilgari ham baholi qudrat fikr bildirgan edim, lekin shu kunlarda yuz berayotgan ayrim voqeahodisalar yana shu masalaga qaytishga majbur qildi.

Bir necha yillar ilgari poytaxtimizdagi taniqli shaxslar dafn etiladigan qabriston rasman “Chig‘atoy qabristoni” deb atalar edi. Keyingi vaqtlarda uning nomi Forobiy qabristoni deb o‘zgartirildi. Biroq odamlar orasida bu maskan haligacha avvalgi nomi bilan tilga olinadi. Qabristondan tashqari hozir ham “Chig‘atoy” nomi bilan bog‘liq “Chig‘atoy Art”, “Chig‘atoy korzinka”, “Chig‘atoy somsa” singari supermarket, kafe va somsaxonalarni uchratish mumkin.

Kamina o‘z-o‘zimga savol berdim: xo‘sh, nimaga bu joyning nomi Chig‘atoy deb ataladi?

Odatda, joy nomlari, tarixiy nomlar, atamalar chuqur mazmunga ega bo‘ladi, ular behuda qo‘yilmaydi. Bu joy nomi qandoq qilib mo‘g‘ul xoni Chig‘atoyga bog‘lanib qolgan ekan? Yoki bu yer o‘z vaqtida uning farmoni bilan qabristonga aylantirilganmi?..

Kimdir, bu nom bu yerda mavjud bo‘lgan Chig‘atoy darvoza bilan bog‘liq bo‘lsa kerak, deya fikr bildirdi. Bunda jon borday edi. Ko‘p bilgich odamlar bilan uchrashdim, so‘rab-surishtirdim. “Chig‘atoy” degan toponimning qayerdan paydo bo‘lganini bilib olarman, degan niyatda turli kitoblarni ko‘rib chiqdim, “Toshkent” ensiklopediyasini varaqladim.

Tarixchi Muhammad Solihxo‘janing “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida yozishicha, XIV asr oxirida shaharning 12 darvozasi bo‘lgan (Qiyot, Turk, O‘zbek, Taxtapul, Qorasaroy, **Chig‘atoy,** Su’boniyon (Sag‘bon), Ko‘kcha, Kamondaron, Qang‘li, Beshog‘och, Qatag‘on).

Rus tarixchisi va diplomati K.Miller 1740-yilda Toshkentda 8 ta darvoza bor edi, deydi. Darvozalar nomlari o‘zgargan, ular ichida **Chig‘atoy** nomi eslatilmaydi. Darvozalardan biri Tarsoxon deb atalib, keyinchalik “Chig‘atoy”ga o‘zgartirilgan. Chor Rossiyasi bosib olgan 1865-yilda esa 12 darvoza bo‘lgan (Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag‘bon, **Chig‘atoy,** Ko‘kcha, Samarqand, Kamolon, Beshog‘och, Qo‘ymas, Qo‘qon, Qashqar).

Olmazor tumanidagi “Yangi turmush” mahallasi (Forobiy ko‘chasi, 230)ga 1991-yilda “Chig‘atoy darvoza” nomi berilgan. 1992-yilda A.Ibragimov bilan X.Toshmuhamedov mahallalari qo‘shilishi natijasida “Chig‘atoy-Oqtepa” mahallasi (Forobiy ko‘chasi, 416) tashkil topgan. Nomi – Chig‘atoy Oqtepasi arxeologik yodgorligidan olingan. Chig‘atoy Oqtepasi arxeologik yodgorligini esa olimlar – V-VI asrlar, X-XII asrlarda barpo etilgan deb hisoblashadi, ammo qachon Chig‘atoy nomi bilan atalgani ma’lum emas. Bu nom arxeologlar tomonidan qo‘yilgan ko‘rinadi (Fayoztepa, Mingo‘rik va h.k. kabi). Ushbu manzilgoh Toshkent shahrining shimoli-g‘arbida, Kaykovus kanali bo‘yida joylashgan. Bu yerda 1927-yilda tarixchi va etnograf olim N.G.Mallisкiy va 1940-yilda M.E.Voroneslar izlanishlar qilishgan, 1968-yilda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tekshirishlar olib borgan. Hozir Chig‘atoy Oqtepasi tekislanib ketgan, o‘rniga zamonaviy uylar qurilgan. “Chig‘atoy Oqtepa” mahallasi shu yerda...

“Chig‘atoy darvozasi” nomidan olingan Chig‘atoy ko‘chasi (“Chig‘atoy qabristoni” ham xuddi shundoq atalgan, shekilli) 1970-yilda o‘zgartirilib, Forobiy nomiga qo‘yilgan (“Toshkent” ensiklopediyasi. T., 2009.597-bet). Keyin “Chig‘atoy qabristoni” – Forobiy ko‘chasidagi qabriston “Forobiy qabristoni” deb yuritila boshlangan. Uning asl nomi esa **“Qo‘shchi ota”** qabristoni bo‘lgan. Ma’lumki, Toshkentda shundoq ota nisbasi bilan atalgan bir necha qabriston borligi buning an’ana shaklini olganini ko‘rsatadi. Chunonchi, Zangi ota, Oqil ota, Chimir ota, G‘oyib ota, Qo‘yliq ota, Yalang‘och ota...

Endi uzoq tarixga yuz burib, Chig‘atoy kim edi, degan savolga javob topishga urinib ko‘raylik.

Chig‘atoyxon – (tug‘ilgan yili noma’lum – 1242), 1224-yildan o‘n sakkiz yil davomida Chig‘atoy ulusi xoni hisoblangan. Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li. Saltanat qonun-qoidalari, udumlar, xususan, Chingizxon yasosini mutlaq ado etish nazorati unga topshirilgan edi. Mo‘g‘ullarning bosqinchilik yurishlarida u bir necha jangda Chingizxonga hamsafar bo‘lgan. Xitoyga yurishda, Movarounnahrni istilo etishda juda qattiqqo‘llik ko‘rsatgan. Aka-ukalari Jo‘ji va O‘qtoylar bilan birgalikda O‘trorni olishda, Urganchni qamal qilishda qatnashgan. 1221-yilning 25-noyabrida Jaloliddin Manguberdi bilan Sind daryosi bo‘yida yuz bergan ayovsiz jangni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, otasining yonida turgan. Sind daryosidan ot solib o‘tib ketgan xorazmshoh Jaloliddinni ta’qib etish, tutib kelishga yuborilgan Chig‘atoy 1221/22-yil qishini Hindistonda o‘tkazgan.

1224-yilda Chingizxon o‘g‘illariga mulk ulashadi. Chig‘atoyga ham katta hudud in’om etiladi. Bu haqda muarrix Abulg‘oziy shunday ma’lumot beradi: “...Movarounnahrni va Xorazmning ba’zisini, bilodi uyg‘ur va Koshg‘ar, Badaxshon, Balx, G‘aznin to Sind suvigacha anga berib erdi. **Bu aytilgan viloyatning hech qaysisiga o‘zi borgani yo‘q.** (Ta’kid bizniki – ***M.A.***) Ammo dorug‘alar qo‘yib erdi. O‘zi O‘gadoyning qatinda erdi.” *(Abulg‘oziy. “Shajarayi turk”. T., 1992. 93-bet).* Shundan so‘ng Movarounnahrni Chig‘atoy ulusi deb atay boshladilar.

Chig‘atoyning ikki qishki va yozgi o‘rdasi bo‘lib, har ikkisi ham Ili vodiysida (hozirgi Xitoyning G‘ulja shahriga yaqin, Ili viloyati)da edi. Mirzo Ulug‘bek shunday yozadi: “Aytadilarki, Chig‘atoyxon aysh-u ishrat va ovni juda sevgan. Ko‘pincha vaqtini o‘sha ishlarga sarf etgan...” *(Mirzo Ulug‘bek. “To‘rt ulus tarixi”. T., 1994. 298-bet.)*

Chingizxon vafotidan (1227) so‘ng Chig‘atoy biron marta ham janglarda qatnashmagan, Movarounnahrga ham qadam bosmagan, ulusni idora qilishni avval Mahmud Yalovochga, keyin esa uning o‘g‘li Mas’udbekka (1238-1289) topshirish bilan kifoyalangan.

Odatda, har bir shaxs o‘zining millat, Vatan, tarix oldidagi buyuk xizmatlari uchun yuksak maqomlarda e’tiborga sazovor bo‘ladi, nomi tarix sahifasiga zarhal harflar bilan bitiladi, sharaflanadi. Chunonchi, Imom Buxoriy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur...

Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: nima uchun Chig‘atoyxon vafotidan buyon salkam sakkiz yuz yil vaqt o‘tsa ham uning nomi hali-hanuz O‘zbekiston toponimikasida mavjud? Joylar uning nomi bilan atalgan, uning nomidagi mahallalarda yashaymiz?..

O‘ylab ko‘raylik: Chig‘atoy, Chingizxonning o‘g‘liga, tariximizdagi qaysi xizmatlari uchun shundoq e’zoz-u hurmat ko‘rsatilishi kerak? Chingizxonning o‘g‘li ekani uchunmi? Hurmatga sazovor bo‘lish uchun insonda ma’naviy huquq bo‘lishi lozim.

Bu ayanchli va kulgili bir holdir. Biz bir narsani anglashimiz kerakki, mustamlaka davrida Chig‘atoy nomi Amir Temurni, Temuriylar davridagi madaniy yuksalishni xaspo‘shlash uchun ataylab shunday baland mavqega ko‘tarilgan edi.

Bundan, afsuski, millatimiz, adabiyotimiz, tilimizga tajovuz qiladigan, dog‘ tushiradigan noxush salbiy jihatlar ham kelib chiqdi. Bu juda ham achinarli hol.

Gap shundaki, jahonda nafaqat yurtimizdagi joylar, balki yurtning o‘zi, tili, adabiyotini ham **Chig‘atoy** nomi bilan atashadigan bo‘lib qoldilar! Turon aholisini ham, turk, o‘zbek emas, bemalol **chig‘atoy, chig‘atoylar** deyish urf tusini oldi.

“Movarounnahr aholisi so‘zlashadigan til esa c**hig‘atoy** tili deb nom olgan” – deb yoziladi “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da. (T., 2005. 9-tom. 635-bet). Qanday qilib, Turkistonning rasmiy tili turkiy degan nomi bo‘la turib, **“chig‘atoy”**ga aylanib qoladi? Bu mantiq doirasidan tashqaridadir.

Albatta, jug‘rofiy hududni bildiradigan “Chig‘atoy ulusi” atamasi borligi haqiqat. Ammo Chig‘atoy tili, Chig‘atoy eli, Chig‘atoy adabiyoti deyish mutlaqo noto‘g‘ridir. Aslida, deyish zarurati bo‘lsa, Chig‘atoy **ulusi** tili, Chig‘atoy **ulusi** eli, Chig‘atoy **ulusi** adabiyoti, bo‘lishi kerak. Axir, Chingizxonning birinchi o‘g‘li Jo‘ji ulusidagi til nega “Jo‘ji tili”, Oltin O‘rda adabiyoti esa “Jo‘ji adabiyoti” deyilmaydi?.. Biz o‘zimiz istamagan holda, mo‘g‘ul bosqinchisi o‘g‘lini, Vatanimizni g‘orat qilgan hukmdorning nomini abadiylashtirish bilan shug‘ullanayotirmiz. Bu narsa kishida chuqur taassuf hissini uyg‘otadi.

Shuni aytish kerakki, ona tilimizning tarixi va qonuniyatlari, nomlanishi, adabiyotimizni davrlashtirilishi bilan asosan V.V.Radlov, V.V.Bartold, N.Poppe, A.N.Samoylovich, F.Ko‘prulizoda, A.Krimskiy singari va boshqa g‘arblik olimlar shug‘ullanishgan. **“Chig‘atoy tili”, “Chig‘atoy eli”, “Chig‘atoy adabiyoti”** degan terminlarning paydo bo‘lishi va tomir yoyishida, bunday qarashlarning jahon fanida tarqalishida zikr etilgan, “chetdan kelib bizning tilimizga turli nomlar berishni yaxshi ko‘radigan turkologlar” (P.Qodirov so‘zi)ning “xizmatlari” katta... Masalan, V.V.Bartold shunday yozadi: “Под влиянием блестящего расцвета тюркской литературы в **чагатайском государстве** (?) при Тимуридах этот **восточнотюркский литературный язык** (?) как на Востоке, так и в европейской науке получил название **“чагатайского”** (?!) *(В.В.Бартольд. Сочинения. V том. М., 1968. стр.606.)* Ya’ni: “Temuriylar davridagi **chig‘atoy davlatida** (?) barq urib yashnagan turk adabiyoti ta’sirida bu **sharqiy-turk adabiy tili** (?) Sharqda ham, Yevropa fanida ham **“chig‘atoy”** nomini oldi...” (O‘quvchi yaxshiroq tasavvur etsin uchun olimning so‘zlarini asliyatda keltirdik. – ***M.A***)

Yana: bu yerda qaysi davlat haqida so‘z ketmoqda – bunisi ma’lum emas. Agar Chig‘atoy ulusi ko‘zda tutilayotgan bo‘lsa, u XIII asr oxiriga kelib mutlaqo mavqeyini qo‘ldan boy bergan edi. Nega chig‘atoy davlati deb atalishi kerak ekan, degan savol ham tug‘iladi. U qaysi davlat edi? Bu davrda yurtimizda hech qanaqa chig‘atoy davlati emas, balki Amir Temur asos solgan Turon saltanati hukm surar edi-ku. Tilimizning o‘z nomi bor, uni sharqiy-turk adabiy tili deb atashga aslo hojat yo‘q.

V.V.Radlov taxminiga ko‘ra ham (“Temur Qutlug‘ va To‘xtamish yorliqlari” maqolasiga qarang) chig‘atoy adabiy tili aslan Sharqdan kelib chiqqan emish. Lekin “Sharq” tushunchasi ma’nosi o‘zidan ham bepoyonroq bo‘lganidan, olimning taxmini noaniq bo‘lib qoladi. Millatparvar alloma buyuk jadid Abdurauf Fitrat turk tilining ko‘p sho‘balarini o‘rganayotgan Yevropa olimlari izlanishlariga qarab, ranjigannamo deydi: “Turkiyot bilan mashg‘ul bo‘lg‘an Ovrupa olimlari turk tilining bu qadar ko‘b sho‘balarg‘a ayrilg‘anin ko‘rgach, bularni bir-birlariga yaqinliklari e’tibori bilan ko‘malarg‘a ajratg‘ali (tasnif qilg‘ali) **tirishadurlar...**” *(Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. T., 2006. 117-bet).*

Sharqshunos olim A.N.Samoylovichning “Chig‘atoy tili” tarixini olti asrga qanday joylaganini ko‘zdan kechiraylik:

1. Chig‘atoy adabiy tilining oltin davri (XV-XVI asrlar).
2. Chig‘atoy adabiy tilining inqirozi (XVII-XVIII asrlar).
3. Chig‘atoy adabiy tilining qayta jonlanishi (XIX asr va XX asrning boshi). Bu o‘zbek filologiya fakultetlari uchun 1984-yilda chiqarilgan darslikka kiritilgan. Olimning fikriga ko‘ra, agar XVII-XVIII asrlar chig‘atoy tilining inqirozi davri bo‘lsa, u holda, XVII asrda yashagan buyuk shoir Boborahim Mashrabning go‘zal she’riyati qanday yaratildi ekan?. U inqiroz emas, yuksak parvozni ko‘rsatib turibdi.

Turkolog olimlar tilimizning ko‘p asrlik rivojlanish pallalari haqida so‘z ochib, uni turli ta’sirlardan o‘zgarishlarga uchragani haqida fikr yuritadilar. Turli asrlarda yaratilgan asarlardan olingan qiyos uchun keltirilgan quyidagi misollarga e’tibor bering. Ular tilimizning ikki yuz yillik (1200-1400-y.y.) davrini aks ettiradi:

*Biliklik keraklik so‘zin so‘zlayur,*
*Keraksiz so‘zini ko‘mib kizlayur.*
*Biliksiz ne aysa ayur uqmatin,*
*Aning o‘z tili o‘z boshini yeyur...*

**Ahmad Yugnakiy**ning XIII asr boshida yaratilgan “Hibat ul-haqoyiq” dostonidan.

***

“Bu kitobni yozgan, toat yo‘linda tizgan, ma’siyat yobonin kezgan, oz ozuqluq, ko‘p yozuqluq, Raboti O‘g‘izning qozisi Burhon o‘g‘li Nosiruddin”...

***

“Ulug‘ otlig‘, qutlug‘ zotlig‘, ezgu xulqlig‘, islom yorug‘lig‘, mo‘g‘ul sanilig‘, musulmon dinlig‘, odamiylar inonchi, mo‘minlar quvonchi, himmati adiz, aqli tegiz begimiz Nosiruddin To‘qbug‘adin... iltimos yanglig‘ ishorat bo‘ldi”.

**Nosiriddin Rabg‘uziy**ning 1310-yilda yozilgan “Qisas ul-anbiyo” asaridan.

***

*Aningkim, ol enginda meng yaratdi,*
*Bo‘yi birlan sochini teng yaratdi.*

*Bo‘yung sarv-u sanubartek, beling qil,*
*Vafo qilg‘on kishilarg‘a vafo qil.*

*Muhabbat nori jondin ketmadi hech,*
*Qo‘lum siym olmangizg‘a yetmadi hech.*

*Soching ming torina ming hur yetmas,*
*Yuzungnung nurina ming nur yetmas...*

**Xorazmiy**ning 1353-yilda yozilgan “Muhabbatnoma” dostonidan.

***

*Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,*
*Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.*

*Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,*
*Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma...*

**Lutfiy**ning XIV asr oxirlarida yozgan g‘azalidan.

***

*Gul tilasa xotiring to‘la tabaq,*
*Bu “Guliston”dan o‘qi bir varaq.*
*Gul jamoli bir necha kunda kechar,*
*Bu “Guliston” doimo ko‘ngil ochar.*
*Ul ajoyibki g‘aroyib munda bor,*
*Xusrav-u Shirin ichinda qanda bor?*
*Bu latofat bog‘-u bo‘stoni durur.*
*Bulbul mug‘anniyi “Guliston”i durur.*

**Sayfi Saroyi**ning 1391-yilda yetmish yoshida yozib tugatgan “Turkiy Guliston” dostonidan.

Bu parchalar bugungi o‘quvchiga ham tiniq tushunarlidir.

“Bo второй половине IX/XV в. **чагатайская литература** в лице Мир Али-Шира (род. В 844/1440-41 г., ум. в воскресенье 11 джумада II 906/3 января 1504 (xato, aslida 1501-yil) достигла своего апогея.” *(В.В.Бартольд. Сочинения. V том. М., 1968. стр.608.)* Ya’ni, “IX/XV asrda Mir Ali-Shir (844/1440-41-yillarda tug‘ilgan; 1504 (xato, aslida 1501-yil) yakshanba 11 jumada II 906/3-yanvarda vafot etgan) siymosida chig‘atoy adabiyoti o‘zining avj nuqtasiga chiqdi.” Ana xolos!

V.V.Bartolddan keltirilgan yuqoridagi ikki iqtibos uning “Islom ensiklopediyasi” degan mashhur nashr uchun yozilgan “Chig‘atoy adabiyoti” maqolasidan olindi.

Biroz tarix: “Islom ensiklopediyasi”ning (The Encyclopedia of Islam) ilk nashrini tayyorlash ishlari 1900-yilda Gollandiyaning Leyden universitetida boshlangan. Unda nemis, golland, fransuz, ingliz olimlari ishtirok etishgan. Natijada 1939-yilda 5 jilddan iborat ensiklopediya uch tilda – nemis, ingliz, fransuz tillarida bir vaqtning o‘zida bosib chiqarilib, butun Yevropaga tarqatilgan. (Zikr etilgan maqola ham shu taxlit mashhur bo‘lib ketgan).

1954-yilda ensiklopediyaning 2-nashriga kirishilgan va 2002-yilda oxirgi 11-jild chop etilgan.

1940–1987-yillarda “The Encyclopedia of Islam” Turkiya xalq maorif vazirligi tashabbusi bilan 15 jild hajmda turk tiliga tarjima etilib nashr qilingan. Biroq ularda Sharqqa (xususan, turk tarixiga) g‘arbcha nuqtayi nazardan qarash yaqqol ko‘rinib turgani, turk madaniyati haqida noto‘g‘ri ma’lumotlar kirib qolgani jamoatchilikda qattiq e’tiroz tug‘dirdi. Shundan so‘ng 1983-yilda Turkiya diniy ishlari boshqarmasi tashabbusi bilan 40 jilddan ortiq hajmda mutlaqo yangi ensiklopediya tayyorlashga kirishildi va bosib chiqarildi.

Endi Alisher Navoiyning o‘ziga murojaat etaylik, qani, ulug‘ shoir chig‘atoy tili, chig‘atoy adabiyoti iboralariga qanday munosabatda bo‘lgan ekan?

Shoir “Lison ut-tayr” dostonining “Bu kitobda taxallus tag‘yirining uzri” bobida:

“She’r san’atin ki qildum ibtido,
**Turk alfozi** bila qildum ado”, deydi va chig‘atoy tili bilan yozdim, demaydi.

“Farhod va Shirin” dostonidan:

*Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,*
*Muayyan **turk ulusi** xud meningdur!*

E’tibor bering: shoir “Chig‘atoy ulusi” emas, **Turk ulusi** demoqda!

“Sab’ai sayyor” dostonidan:

*O‘ngda* **turkinavoz** *urub doston,*
*Qo‘zg‘olib har navosida Turkiston...*

“Saddi Iskandariy” dostonidan:

*Mug‘anniy, kel-u chert turkona soz,*
*Maqomi “Navo”, yo‘qsa “Turkiy Hijoz”.*

*Navoiyning ash’oridin necha bayt,*
*Mening hasbi holim topib* **turkiy** *ayt!*

Hazratga qulluqlar bo‘lsin!

Shunisi e’tiborga sazovorki, ulug‘ vatanparvar shoir Alisher Navoiy o‘z asarlarida **“Chig‘atoy eli”, “Chig‘atoy tili”, “Chig‘atoy adabiyoti”** degan iboralarni mutlaqo qo‘llamaydi. Ona tilimiz muammolariga bag‘ishlangan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ona tilimizga nisbatan **“Turk eli tili”** atamasini ishlatadi, **“Chig‘atoy tili”** iborasini eslamaydi. Faqat bir joyda – “Mezon ul-avzon” risolasi muqaddimasida: “Turk tili bilan qalam surdum” so‘zlaridan keyin... “chig‘atoy lafzi bila raqam urdum” deydi xolos. “Navodir un-nihoya” devo-

# BILAYLIK

nida “Chig‘atoy” so‘zi shaxs nomi, “Favoyid ul-kibar” devonida esa qavm nomi sifatida tilga olinadi. Boshqa hech qaysi asarda bu so‘z uchramaydi, uchrasa ham etnik atama vazifasini bajaradi xolos.

Ayni paytda ona tilini ifodalaydigan **“turk”** so‘ziga shoirning mehri butunlay bo‘lakcha. Yana misollarga nazar tashlaylik.

Chunonchi, “Navodir un-nihoya” devonida o‘qiymiz:

*Ey, Navoiy, bir parivash **turkning** majnunimen...*

“Favoyid ul-kibar” devonida:

***Turklarning** qulidurmenki, nigorimning erur*
*Qoshi **turkona,** qabog‘i keng-u ko‘zi qiymoch.*

“Farhod va Shirin” dostonida:

*Ko‘ngil bermish so‘zumg‘a **turk** jon ham,*
*Ne yolg‘uz **turk,** balkim turkmon ham.*

“Sab’ai sayyor” dostonida:

*Dahr aro shoh chu **turk** voqe’dur,*
*El aro **turk lafzi** shoye’dur.*

“Lison ut-tayr” dostonida:

*Chun toptim ul kalom ichra kamol,*
***Turk alfozi** bila surdum maqol.*

***

***Turk nazmi**da chu men tortib alam,*
*Ayladim ul mamlakatni yakqalam.*

*Menki, **turk alfozi**ga aylab shuru’,*
*Nazm topti ta’b-u kilkimdan vuqu...*

Navoiy o‘z ona tili bilan ana shunday faxrlanadi, asarlarida bu mavzuga qayta-qayta murojaat etadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon shahrini ta’riflar ekan: “Eli turkdur. Shahri va bozorisida turkiy bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim Hirida nash’u namo topibtur, bu til biladur”, deb guvohlik beradi *(Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”, T., 2002. 34-bet)* va bu bilan Turon yurtida **turk tili adabiy til ekanini** (ta’kid bizniki – ***M.A.***) isbotlaydi, “chig‘atoy tili” iborasi haqida esa, tabiiyki, lom-mim demaydi. Yana Alisher Navoiy haqida “Boburnoma”da aytilgan so‘zlarga ham diqqatni qarataylik: “Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. **Turkiy til** bila to she’r aytibdurlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas...” *(o‘sha kitob. 132-bet.)*

Bunda ham chig‘atoy tili haqida imo-ishora ham yo‘q... Shundoq ekan, Alisher Navoiy qandoq qilib “chig‘atoy” shoiri (чагатайский поет) bo‘lsin?

mumtoz adabiyotni “Chig‘atoy tili”, “Chig‘atoy adabiyoti” deb atash kerak?”

Shu yerda bir jihatni aytib o‘tish kerak. Adabiyotshunos, tilshunos olimlarimiz orasida, go‘yoki “Chig‘atoy tili”, “Chig‘atoy adabiyoti” singari atamalar XIII asrdan boshlab mavjud bo‘lgan, degan qarashlarni olg‘a surguvchilar ham uchrab turadi. Bu asossiz da’volardan o‘zga narsa emas. Tarixga nazar solinsa, mo‘g‘ullar bosqini tufayli yurtimiz “Chig‘atoy ulusi” deb atala boshlangandan keyin mustamlaka o‘lkada adabiyot so‘nib ketganini ko‘ramiz, zero, XIII asrda adabiyotimizda biron bir ko‘zga ko‘rinarli asar yaratilgani yo‘q. Rabg‘uziyning “Qisas ul-anbiyo” asari 1310-yilda, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” dostoni 1353-yilda – bular endi XIV asr bo‘ladi – yaratildi. Amir Temur yurt boshiga kelganidan so‘nggina adabiyotning, ilm-fanning rivojlanishi uchun imkoniyatlar paydo bo‘ldi, bu jumlai jahonga ma’lum.

Afsuslanarli joyi shundaki, jahonda o‘zbek adabiyotini Chig‘atoy adabiyoti deb tushunish hali-hanuz davom etmoqda. Masalan, Bokuda ozarbayjonlik adabiyotshunos Almaz Ulvining ozarbayjon-o‘zbek adabiy aloqalariga bag‘ishlangan “Ozarbayjon-o‘zbek (**chig‘atoy**) adabiy aloqalari” monografiyasi bosilib chiqdi (“Kitob dunyosi” gazetasida 2014-yil 10-sentyabr sonida shu kitobga yozilgan taqriz hamda “Sharq yulduzi” jurnalining 2014-yilgi 4-sonidagi Xolid Saidga bag‘ishlangan maqolaga qaralsin). Monografiyada olima ikki adabiyot o‘rtasidagi ijodiy aloqalarga batafsil to‘xtaladi. Bu borada tasavvur to‘liqroq bo‘lishi uchun kitobdagi boblar, fasllar nomlarini keltirib o‘taylik: “Ozarbayjon-**chig‘atoy** (o‘zbek) adabiy aloqalarining shakllanish davri”, “XVI-XIX asrlar **chig‘atoy** (o‘zbek) poeziyasi va adabiy mushtarak mayllar”, “XX asr **chig‘atoy** (o‘zbek) adabiyoti va “Mulla Nasriddin” jurnali (Sharq satira maktabi va jadid **chig‘atoy** (o‘zbek) she’riyati”, “O‘zbek (**chig‘atoy**) she’riyati ozarbayjon tilida”, “**Chig‘atoy** (o‘zbek) nasrining ilk davri”... “O‘zbek” so‘zi tushuntirish, izoh uchungina qavsda berilmoqda, adabiyotimiz esa “Chig‘atoy adabiyoti” sifatida talqin qilinmoqda. Aftidan, gazetaga ham, jurnal tahririyatiga ham, maqola muallifiga ham bunday talqin maqbul ko‘rinadi shekilli, chunki ular tomonidan hech qanday munosabat bildirilmaydi. Bu kitobni o‘qigan ozarbayjonlik o‘quvchilarda **o‘zbek** (chig‘atoy emas!) adabiyoti haqida noto‘g‘ri tasavvur paydo bo‘lishi mumkin.

Shubhasiz, ozarbayjonlik zahmatkash olima Almaz Ulvi xonimning o‘zbek adabiyotini ushbu mamlakatda va dunyoda targ‘ib qilish hamda ikki qardosh mamlakat ilmiy doiralari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish borasidagi xizmatlarini behad qadrlaymiz. Faqatgina u kishi kelgusida yuqorida tilga olingan masalalarga e’tibor qaratsa, ayni muddao bo‘lardi.

Afsuski, tariximizga, umuman turk tarixiga noxolis, nopisand, goho ochiqdan-ochiq g‘araz bilan yondashish tendensiyasini har qadamda sezib turamiz. Bir misol. Sohibqiron Amir Temur nomining turlicha berilishiga



diqqatni qarataylik. Allohning bandasiga bitta ism beriladi. Ammo buyuk bobomizning nomi Temurbek bo‘lgani holda uni jahon rasmiy nashrlarida (ensiklopediyalar, lug‘atlar va h.k.) turlicha, chunonchi, Taymur, Timurlenk, Timur, Tamburleyn, Tamerlan qabilida yozilishiga nima deyish kerak? Boshqa mashhur siymolarning birontasi taqdirida bunday munosabatni uchratmaymiz.

Mustaqilligimiz tufayli, ahvol mutlaqo o‘zgarib borayotgani kunday ravshan. Buyuk bobomiz haqidagi asl haqiqat yuzaga chiqdi, buni jumla jahon tan olmoqda. Moskvada nashr etiladigan “Наука и жизнь” jurnali, “Аргументы и факты” gazetasi hozir O‘zbekistonda Sohibqiron nomini “Amir Temur” deb yozish qabul qilinganini e’tirof etdi.

Tarix saboqlarini unutmaylik. Adabiy jamoatchiligimiz, adabiyotshunos, tilshunos, tarixshunos olimlarimizning chig‘atoy tili, chig‘atoy adabiyoti degan o‘ylab chiqarilgan, sun’iy atamalarni qayta ko‘rib chiqishlari, isloh qilishlari zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Bunda chig‘atoy tili emas, **eski o‘zbek tili,** chig‘atoy adabiyoti emas, **o‘zbek mumtoz adabiyoti** (bu termin keyingi paytlarda izchil qo‘llanayotgani quvonchli) terminlarini mustahkam muomalaga kiritish lozim. Barchasi uchun o‘zimiz kuyib-yonishimiz, o‘zimiz ado etishimiz kerak. Bunday qadam xalqimizga, ayniqsa, yosh avlodga tariximiz haqida to‘g‘ri ma’lumot berishda, tariximizni chuqur anglashda qo‘l kelishi shubhasizdir. O‘z tariximizni teran bilaylik, tariximiz bilan faxrlanaylik.

**Muhammad ALI,**
**O‘zbekiston xalq yozuvchisi**

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov “Adabiy tilimizning oltin ko‘prigi” maqolasida xuddi shu mavzu – chig‘atoy tili, chig‘atoy adabiyoti haqida juda o‘rinli fikrlarni o‘rtaga tashlaydi. Jumladan adib yozadi: “Amir Temur 1370-yili Markaziy Osiyoda davlat tepasiga kelgandan keyin Chig‘atoy avlodlari bu hududdan quvilgan, Movarounnahr yana qadimiy nomi bilan Turon va Turkiston deb atala boshlagan edi. Chig‘atoy ismi endi faqat turkiylashgan bir mo‘g‘ul urug‘ining oti yoki “Chig‘atoytepa”, “Chig‘atoy qabristoni” kabi joy nomlari sifatida saqlanib qolgan edi. Shunga qaramay, sun’iy yasalgan “chig‘atoy tili” tushunchasini Alisher Navoiy va Bobur Mirzo tiliga nisbatan ham tatbiq etish, yana bu soxta atama tarixini XX asrgacha cho‘zib kelish ilm-fanga emas, faqat qaram qilingan xalqlarning yuksak madaniyatini kamsitishga xizmat qiladigan g‘ayriilmiy bir siyosat edi. Afsuski, ayrim o‘zbek olimlari til tarixiga oid kitoblarida “chig‘atoy tili” iborasining mohiyatiga e’tibor bermay keladilar.

Universitetlarning filologiya fakultetlari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida 1994-yilda nashr etilgan kitobda shunday satrlar bor: “Turkshunoslikda ba’zan **chig‘atoy adabiyoti va chig‘atoy tili, chig‘atoy turkiysi** atamalari uchraydi. Bu o‘rindagi chig‘atoy adabiyoti atamasini o‘zbek mumtoz adabiyoti deb tushunmoq kerak. Chig‘atoy tili atamasi esa eski o‘zbek adabiy tilini anglatadi”.

Bu ma’lumotni talabalar ongiga o‘quv qo‘llanma orqali yetkazib berayotgan tilshunos olimlarimiz bir lahza o‘ylab ko‘rmaydilarki, Chig‘atoy o‘zi kim bo‘lganki, butun bir adabiy tilni, hatto Alisher Navoiy davridagi

O‘TMISH SABOQLARI

# “YIG‘I BILAN KULMAK ORASIDA...”

**Abdulla Qodiriy “tuz haqini ado etmoqni” lozim bilgan Rizo kim edi?**

**Ushbu iqtibosdan uzindini o‘zbek jadidlik maktabining yirik namoyandasi Abdulla Qodiriyning “Jasorat – ayb emas!” sarlavhali maqolasidan keltirdik. Adibning ushbu maqolasi “Qizil bayroq” gazetasining 1922-yil 1-iyuldagi 191-sonida chop qilingan. Adib maqolaga Julqunboy deb imzo chekkan.**



*Umumrossiya musulmonlari muftiysi Rizouddin ibn Faxruddin. 1930-yil.*

Maqolaga “o‘q tomir” bo‘lgan mavzu – matbuotda so‘z erkinligi. Jadid adib so‘z erkinligini jasoratga mengzar ekan, ayni paytda vaqtli matbuot chiqishlarida shu erkinlik suiiste’mol qilinayotgani, bir-birovga tosh otishlar, vaziyat-u mohiyatni baholashda yo‘l qo‘yilayotgan xatogarchiliklardan achinadi, ammo buni vaqtinchalik tajribasizlik sifatida ko‘rib, ayb hisoblamaydi:

“Hali jahli murakkabga (mutloq nodonlik) qolg‘unimizcha yo‘q. Lekin shunisi bor: Arabiyning ko‘rgan tushlariga, olam misoliga (ya’ni olamning yaratilishi) ishonmak majburiyati bizda yo‘q. Bu ersa nomashru’ (shariatga xilof) bir jasorat bo‘lg‘ani kabi buning bilan bizni hech kimsa ayblay olmas. Yig‘i bilan kulmak orasida mutaraddid (ikkilanmoq) qolmoqning aslo luzumi yo‘q!”

Qodiriy hazratlari o‘sha davr vaqtli matbuotidagi bu tajribasizliklarni alam bilan qayd etarkan o‘zlariga ibrat bo‘ladigan zotlarni sanab o‘tadi:

“Muso Jorulloh, Rizo va Rashid qozilarning ham Ismoilbeklarning qadrlarini, tuz haqlarini lozimicha bilmagan Sharq yigiti ichimizda turmasun demoqchi bo‘laman. Ularning xizmatlarini taqdir etmaguchi majnundir, boshqa emasdir”. (Bu o‘rinda “majnun” so‘zi “aqlsiz” ma’nosida kelgan).

Qarangki, Qodiriy hazratlari jadidlar otasi Ismoil G‘aspralidan oldin Rizo va Rashid qorilar nomlarini keltiradi.

Xo‘sh, adib tilga olgan, so‘z erkinligi borasida ibrat bo‘ladigan Rizo kim edi?

Adibning 2014-yilda chop qilingan “Tanlangan asarlari”ni nashrga tayyorlagan nevarasi Xondamir Qodiriy kitobdagi maqolalariga izoh qismida qisqartirilib Rizo shaklida keltirilgan shaxs Rizouddin ibn Faxruddin ekanini ko‘rsatgan.

Rizouddin ibn Faxruddin 1859-yilda qadim Tataristonda dunyoga kelgan. Eski maktabda, madrasada, so‘ng qator Sharq mamlakatlari ilm dargohlarida tahsil oladi. Ko‘pgina Sharq hamda G‘arb tillarini yaxshi bilgan ziyoli Ismoil G‘asprali boshlagan jadidlik harakatining yalovbardorlaridan biriga aylanadi. Jadidlik harakatining ilk va faol targ‘ibot maydoniga aylangan “Sho‘ro” jurnali tashkilotchisi, uning bosh muharriri bo‘ladi. Bu gazeta Rossiyaning musulmon xalqlari yashaydigan hududlaridan tashqari Turkistonga ham muntazam kelib turgan. Ayni vaqtda Rizouddin ibn Faxruddin qalamiga mansub maqolalar, u kishi yaratgan risolalar Turkistonda chiqayotgan vaqtli nashrlarda chop qilingan. Abdulla Qodiriy shu maqola, risolalarni o‘qiganki, u zotga katta baho bergan. *(Eslatib o‘tish o‘rni:* “Sho‘ro” jurnalining 240 ta sonida Turkiston hayotiga oid 323 ta maqola, xatlar, badiiy asarlar yoritilgan).

Shu o‘rinda qiziq bir holatni kuzatamiz. Rizouddin ibn Faxruddin Umumrossiya musulmonlari muftiysi bo‘lishga munosib ko‘rilgan, bu vazifada ishlagan shaxs. Aynan shu sabab bu shaxs siymosida jadidlik harakati va islom dini ulamolari orasida “go‘yo muntazam yuzaga kelgan kelishmovchilik, nizolar” haqidagi cho‘pchaklar pufakdek yorilib ketadi. Fikri ojizimiz, aslida soxta ayblovlarni, “islom ulamolari va jadidlar nizosi”ni sho‘rolar uyushtirmaganmikan, degan gumonlar tomon yetaklaydi.

O‘tgan asrning boshi butun dunyoda siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, jug‘rofiy o‘zgarishlar, silkinishlar yuzaga kelgan davr edi. Chor Rusiyasi istibdodini yelkasidan uloqtirmoq, buning uchun mazlum xalqlarni ilm-ma’rifat bilan uyg‘otmoq majburiyatida qolgan jadidlar ming yillik islomiy va sharqona qadriyatlarni o‘zlarida mujassam etgan ahli ulamo bilan birlashsalar, maqsad va orzulari uyg‘un kelsa, ular katta kuchga aylanishardi. Hokimiyatni aldov va kuch bilan qo‘lga kiritgan sovetlarga bu maqbul emasdi. Shu sababdan, sun’iy ravishda bu ikki ijtimoiy kuch orasiga qutqu solinadi, nizoli holatlar uyushtiriladi, oxir-oqibatda yakdil mushtga aylanayotgan kuch – jadidlar va ulamolar birligiga darz yetkaziladi. Sovetlar o‘z maqsadlariga yetadi. *(O‘tgan asrning o‘ttizinchi yillari qatag‘onida jadidlar ham, diniy ulamolar ham bir safda o‘limga mahkum qilinib, otish uchun saf tortgan qatorlarda yonma-yon turganlarini ko‘ramiz).*

Rizouddin ibn Faxruddin taniqli jadid bo‘laturib, Umumrossiya musulmonlari muftiysi lavozimiga yakdil saylangani, bunga sovetlar ilojsizlikdan izn berganliklari holatining o‘ziyoq “yangilik” (jadidlik) va “eskilik” – qadimchilar o‘rtasida o‘zaro bir-birovni anglash, umummaqsad sari birlashish g‘oyasi borligini ko‘rsatadi. Umumrossiya musulmonlari muftiyati tatar, boshqird, udmurd, Qrim tatarlari, Qafqaz xalqlari va boshqa musulmonlarni birlashtirgan qudratli birlashma edi. Qozonda ilk jadid jurnali tashkil qilgan, unga bosh muharrir bo‘lgan, vaqtli matbuotda “g‘arbcha taraqqiyot g‘oyalari”ni to‘xtovsiz targ‘ib qilayotgan taniqli jadidning muftiy lavozimiga saylanishini shu o‘rinda tasavvurimizga sig‘dirishimiz qiyin kechadi. Sovetlar “johiliyat batqog‘iga botgan” deb zo‘r berib odamlar ongiga singdirayotgan diniy qatlam vakillari nega bir jadidni – “islom diniga qarshi” insonni o‘zlariga rahnamo qilib saylashdi? Faqat saylandi emas, Rizouddin ibn Faxruddin ko‘p yillar bu yuksak lavozimda ishlab, musulmon xalqlari manfaatlarini mustamlakachi hukumat vakillari oldida dadil qo‘ya oldi ham. Va vaqt kelib, sovetlar baribir maqsadlariga erishdilar: muftiy atrofida to‘qilgan yolg‘onlar, tuhmatlar o‘laroq, u vazifasini o‘z ixtiyorisiz tark etishga majbur bo‘ldi va 1937-yil qatag‘oni tegirmoniga tushib ketdi...

Rizouddin ibn Faxruddinning shaxsiyati va ilmiy-ijodiy faoliyati g‘oyatda keng qatlamli. Bu inson bir vaqtning o‘zida tarixchi, manbashunos olim, islomiy ilmlar bilimdoni, muallim, tarjimon, faylasuf va muhaddis edi. U bosh muharrir bo‘lgan “Sho‘ro” jurnali o‘sha vaqtda musulmon olami va turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan, birlamchi aniq manba hisoblangan. Peterburgda Rossiya Fanlar akademiyasi tomonidan chiqarilgan “Мир ислама” jurnali deyarli har sonida “Sho‘ro” jurnali maqolalaridan iqtiboslar keltirgan. Shuningdek, Istanbulda chop qilingan “Turk yurti” jurnali “Sho‘ro” jurnalini Rossiyada chiqadigan musulmonlarning eng yaxshi nashri, deb qayd etgan.

Yana bir e’tiborli tomoni, “Sho‘ro” jurnali 1913-yildan boshlab tatarlar tomonidan “Usmonli harflari” deya nomlangan alifbo asosida chop qilingan. Bu turk dunyosini yagona alifbo orqali birlashtirish uchun qilingan ilk harakat edi. *(Yaqinda Bokuda bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar uyushmasi yig‘nog‘ida aynan yagona alifboga o‘tish g‘oyasi* o‘rtaga tashlanganini eslang!)

Va yana jurnal tatar tilida emas, barcha turkiy xalqlar tushunadigan, tarjimon talab qilmaydigan o‘rta turk tilida chop qilingan.

Boshqa o‘zbek oydinlari kabi Abdulla Qodiriy ham muntazam “Sho‘ro” jurnalini o‘qigan, shuningdek, Rizouddin ibn Faxruddinning boshqa asarlaridan xabardor bo‘lganki, maqolamiz boshida aytilmish ta’rif-e’tirofni keltirgan.

...Yaqinda “Muharrir” nashriyotida Rizouddin ibn Faxruddinning “Shogirdlik odobi” risolasi ko‘p nusxada chop qilindi. Risolani xorazmlik ulamo Ahmadjon eshon Yusupov tatar tilidan mahorat bilan tarjima qilgan.

Muallif kirish qismida yozadi: “Ilm – tiriklikda va oxiratda o‘ziga foydasi tegadigan yoki zarari yetadigan narsalarni bilish demak. Ilm insonlarga xos bir sifatdirki, boshqa sifatlar: botirlik, juvonmardlik, shafqatlilik kabilar ba’zi hayvonlarda ham mavjuddir.

...Ilmlik bo‘lish inson uchun muborak bir ziynat – har bir fazilatning go‘zalidir. Ilm dunyoda qalbi so‘qirlikdan, oxirat azobidan xalos qiluvchi nurdir. Ilm yolg‘izlikda hasratdosh, g‘urbatda sirdosh, do‘stlar huzurida ziynat, dushmanlarga qarshi qurol!”

Yoki jadid bobomizning “Oltinchi vazifa” bo‘limidagi yozmishlariga e’tibor qarating: “Ilm olish niyatida tahsil qiluvchi talaba tirishqoq bo‘lishi lozim. Dunyo moli uchun tirishib harakat qilmasa – topilmaydi. Ijtihodli, ya’ni harakatchan kishilar maqsadlariga erishadilar, barcha berk eshiklar ijtihodlilar uchun ochiladi”.

Va yana: “Odam bolasi uchun ilm olish vaqti beshikdan to qabrgachadir. Ya’ni, hech kim hech bir vaqtda ilmdan behojat emas”.

Yoki: “Maktab va madrasalar, ularda tahsil oluvchi talabalar uchun nizomlar zamonaga muvofiq, davrning qo‘lloviga binoan bilimli insonlar tarafidan tartibga solinadi. Nizomlar sababidan oz mashaqqat bilan ko‘p foyda olinadi, har kimning haq-huquqi muhofaza qilinadi, negizlari ham mustahkamlanadi. Shuning uchun talaba shogird bo‘lgan kishi maktab nizomlariga xuddi podshohga itoat qilgandek itoat qilishlari shart!”

Umuman aytganda, Rizouddin ibn Faxruddinning ushbu risolasida bo‘lg‘usi talaba oldiga qo‘ygan o‘n beshta vazifaning birortasini ham vaqt shamollari uchirib ketmagan – barchasi hamon dolzarb, hamon amaliyotda bo‘lishi zarurki, bu jadidlar o‘rtaga tashlagan g‘oya, maqsadlar eskirmasligini, bugungi kunda ham g‘oyat asqatishini bildiradi.

Jadid allomaning ilm olish borasida ahli tolib oldiga qo‘ygan talablari, nasihatlari, luzumlarini vaqt eskirtmagan – xuddi davrlar taloto‘pidan omon chiqib, bugun ikkinchi umrini boshlagan jadidlik harakati kabi.

Hali bu kabi vaqt eskirtmagan asarlar qancha – ular hujjatgohlarda, bir asr ilgari chop qilingan jurnal va gazetalarning sarg‘aygan sahifalarida o‘zlarining “ikkinchi umr”larini kutib yotishibdi.

Qodiriy bobomiz aytmish: “Yig‘i va kulmak orasi”dan allaqachon chiqdik. Armonlar – yig‘ilar ortda qoldi, oldimizda baxtimizdan kulmak, quvonmoq onlari turibdi.

**Ro‘zimboy HASAN,**
**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi**

ESSE

# TANGRINING TOSHI

## Bir hikoya tegrasidagi o‘ylar

Qulman OCHIL

**CHIN IXLOS**

Bu hikoya haqida ko‘nglimdan kechgan o‘y-fikrlarni anchadan beri yozgim kelardi. Tunov kuni uni qaytadan o‘qidim-u qanday qilib yozishga kirishganimni bilmay qoldim.

Asar “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2009-yil 13-noyabr sonida chop etilgan. Esimda, uning uchinchi sahifasini ochib, “Stupka”ga ko‘zim tushgan: “Vah! O‘zbekchasini topolmabdilarmi? Erkin aka-ya?!”

Bilaman, Erkin A’zam yozgan yangi asar qo‘liga tushsa, adabiyotning chin ixlosmandi bor ishi-tashvishini chetga surib qo‘yib, mutolaaga beriladi: “Arslon akamiz dunyodan o‘tgandan so‘ng Marina yangamiz mana shu kunni intiqib kutadigan bo‘lib qolgan...”

Bu – boshiga kallapo‘shini dol qo‘ndirgan lalmi boysunlikning gapi. Ichida doim nur o‘ynab turadigan jaydari o‘zbekkina mana shunday – “akamiz”, “yangamiz”, “tog‘amiz”, “momomiz”, “bobomiz”, “oshnamiz” deb mehri iyib gapiradi. Bunday so‘zlarga ko‘zi tushgan adabiyotning o‘sha chin muxlisi qiyqirib yuborishi tayin: “Faqat Erkin A’zamgina shunday yozishi mumkin! Faqat Erkin A’zam deganlari mana shunday jaydari gurunglardan olishi mumkin!”

Bu – hozirgi zamon tilida aytganda, Erkin A’zamning adabiyotdagi o‘ziga xos brendi: ilk satridanoq taniysiz! Taniysiz-u mutolaaga sho‘ng‘iysiz! Sarxushlantiradigan ichimlikdan totina boshlaganday, o‘tirgan joyingizda beixtiyor bir qo‘zg‘alib olasiz-da, bosh ko‘tarmay o‘qiyverasiz: avval mahliyo, bora-bora mubtalo bo‘lib qolganingizni o‘zingiz sezmaysiz. San’atning kuch-qudrati asli shunda: muallif ixtiyoringizni sizdan olib, o‘z ko‘yi-ohangiga solganida. Ashk daryosiga otib, suzishga majbur qilganida.

O‘z ijodiy konsepsiyasida qoyim va sobit Erkin A’zam brendi o‘zbekona bag‘rikenglik, insoniy mehr va yuksak so‘z madaniyatining yorqin timsoliga aylanganiga yarim asr bo‘ldi. Bu brendga xos asarlarda soxtalik, tilyog‘malik, tama, esnoqni keltiradigan kitobiylik yo‘q.

Jonsarak yozuvchi bosh muharrir sifatida “Tafakkur” brendini yaratganini ham hech kim inkor eta olmaydi. Majallaning o‘ttiz yillik faoliyati mobaynida ilmiy-badiiy tafakkur, til va muayyan talablar bo‘yicha milliy mezonlar shakllantirildi va boyitildi. Tahrir san’at darajasiga ko‘tarildi.

Zahmatkash adibning barcha asarlarida bo‘lgani kabi “Stupka”da ham o‘qiganingiz sari voqealar rivoji sizni qahramonlar hayotining goh g‘aroyib, goh mungli-ma’yus puchmoqlariga tortib ketadi.

O‘sha kuni hikoyani o‘qigan adabiyotning chin muxlislaridan biri – sobiq askar yigitning ko‘zlarida yosh g‘iltillaganiga o‘zim guvohman. “Qarasam, – deydi u, – satrlar ayqash-uyqash bo‘lib, bir-biriga mingashib ketyapti. Ana-mana deguncha ko‘z oldimni tuman bosganday hech narsani ko‘rolmay qoldim”.

“Nima bo‘ldi, taqsir? – deya taajjub izhor etdim men. – Kap-katta odam, sochingizga oq oralamasdan, go‘dakfe’l chollarga o‘xshab?..”

Sobiq askar shosha-pisha mijjalarini artdi: “Xizmatda yurgan vaqtlarim esimga tushib, ko‘nglim bo‘shab ketdi, savil!”

Ichki telefondan tarjimonga sim qoqdim:

– O‘rischaga o‘girib bersangiz, iltimos! Pulidan g‘am yemang.

Birpasdan keyin javob qo‘ng‘irog‘ining sasi xonamga yoyildi:

– Pul-mulingizni qo‘ying! – dedi O‘zA tarjima tahririyatining bosh muharriri, jahon adabiyotining u yog‘idan kirib, bu yog‘idan chiqqan nozikta’b olima, ikki tilga ham tarjimani pistaday chaqib tashlaydigan Zebo Boboyeva hiqillashdan o‘zini to‘xtata olmay. – Jon-jon deb tarjima qilaman!..

– Yig‘layapsizmi? – deya talmovsiradim men. – Tinchlikmi?

– Dahshat! Sho‘rlik ayollarning qismati yurak-bag‘rimni ezib yubordi!

Hayajonim ichimga sig‘may, endi muallifni izlashga tushdim.

– Ha, oynam? – guldiragan sado keldi simsiz go‘shakdan.

– Qaylardan so‘raymiz, aka?

Erkin aka bilan necha yillardan beri qo‘ru davramiz bir. Ukasining erkinsirab aytgan asov gaplarini ko‘taradi. Malol kelganini sezdirmaydi.

– Boysunda kinochilar bilan yuribman.

– Tabriklayman, aka! Chin dildan tabriklayman! “Stupka”ni qotirib qo‘yibsiz!

– Buni qarang! Buni qarang! Asli o‘zi, sizning tilingiz bilan asal yalash kerak, inim!

– Bor gapni aytyapman! Ishonmasangiz, ana, so‘rang: tarjimon bechoraning ko‘zyoshlaridan gazeta ivib ketdi.

– Tushunmadim... Bugun chiqqan hikoyaga tarjimonning nima aloqasi bor?

Muddaoni aytdim: “Stupka”ni zudlik bilan rus tilida chiqarish kerak. Marina yangamizning qavmi ham o‘qisin, bilsin!

– Obbo! – deya yayrab kuldi ustoz. – Yana-chi?

– Yana, kinochi oshnalaringizga ayting, – deb ilhomim jo‘shib davom etdim. – Insoflisi bo‘lsa, asarni film qilsin. “Oskar”ga loyiq kartina bo‘ladi!

– Hay-hay! – dedi muallif zavqlanib. – Ko‘z-po‘z tegib qolmasin tag‘in!

“Stupka” ko‘p o‘tmay Moskvadagi nufuzli adabiy jurnalda e’lon qilindi. 2017-yili adibning asarlari “Heirs to the Great Sinner Sheikh San’on” (“Buyuk osiy Shayx San’on vorislari”) degan umumiy nom berilgan kitobida Britaniyada chop etildi. Dunyoning eng yirik madaniyat markazlari – Parij, Vashington, London kabi shaharlarda YUNESKO shafeligida o‘tkazilgan taqdimotlarda nomdor yozuvchilar, adabiyotshunoslar, diplomatlar, madaniyat va siyosat arboblari ishtirok etdi.

Inglizcha nashr jahonga mashhur onlayn kitob do‘koni – Amazon.com tarmog‘ida sotuvga chiqarilgach, jahonda ham o‘z o‘quvchilarini topdi. Sinchkov munaqqidlar uning nafaqat ingliz, balki fransuz tilidagi tarjimasini ham tahlil va tafakkur chig‘irig‘idan o‘tkazib, yuksak baho berdilar.

Bu orada Erkin aka ilhom bilan ishga kirishib, hikoyani “Tangrining toshi” degan nom bilan badiiy filmga moslab qayta ishladi. Ahli kino chapaklar bilan kutib olgan ssenariyning peshonasiga chalpakning qismati bitilgan ekan: qaysidir stol tortmasiga tushdi-yu, chiqmay qolib ketdi. Aftidan, o‘zbek kinosining osmonida ob-havo o‘zgarib qolgani ziyon qildi. “Ajab emas, – deydi nekbin muallif, – havo ochilib, chinakam san’at-u azaliy mavzular yodimizga tushganda, ehtimol, bu mavzuga yana qaytilar. Yo nasib!”

O‘qigan borki, qiqir-qiqir kuldirib, boshqasining ko‘nglini xun qiladigan, munaqqidlar nazaridan tushmay kelayotgan “Stupka”ning siri nimada?

Gapni cho‘zib o‘tirmayman: hayotiyligida, sodda-samimiyligida, tilining shirasida! Bir nafasda o‘qiysiz va qancha zavq-shavq olasiz. Ayni choqda, og‘ir-vazmin, xayolchan-o‘ychan tasvirlar, alamlar, iztiroblar bitilgan satrlar dilingizni o‘rtab, ko‘zingizni namlantiradi.

O‘ylaymanki (o‘ylarim esa asossiz emas!), mabodo, shu hikoyani G‘arbning biror adibi yozganida, darhol uni ko‘tar-ko‘tar qilib, piar osmoniga olib chiqilar, jahon adabiyotidagi durdona asar sifatida ko‘k toqidan mangu o‘rin berilar edi. Bizda esa... Qo‘yavering, eng muhimi, uni o‘zbek adibi yozgan, Erkin A’zam yozgan!

Lofi yo‘q, o‘qib, ko‘rib, bilib yuribmiz, G‘arbning eng nomdor tanlovlarida sovrinlarga loyiq topilib, jahoniy davralarning to‘ridan joy berilganlar orasida kitoblari Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Erkin A’zam, Murod Muhammad Do‘st, Xayriddin Sulton kabi adiblarimiz asarlarining yaqiniga ham yo‘lay olmaydiganlari qancha! Ularning omadi – qozon-u cho‘michga yaqinligi.

Hartugul, insof-u adolat ko‘tarasavdoga qo‘yib yuborilmagan ekan. Asarlarini mutaraqqiy Ovro‘poning nozikta’b ziyolilari kamoli ixlos bilan mutolaa qilayotgan va boshqalarga ham o‘qishni astoydil maslahat berayotgan yuz nafar zabardast so‘z san’atkorlari ro‘yxatida o‘zbek yozuvchisi Erkin A’zam ham bor. Qarorgohi Londonda joylashgan inglizzabon nufuzli internet Calvert-journal.com jurnali 2021-yili o‘tkazgan so‘rovning natijasi shunday. Tan bermay bo‘ladimi!

**QO‘RG‘ONDAGI ALG‘OV-DALG‘OV**

Qizig‘i, kitoblari ko‘plab tillarga tarjima qilingan, filmlari ne-ne xalqaro festivallarda oliymaqom sovrinlar olgan, pyesalari nufuzli teatrlarda sahnalashtirilgan adibning o‘zi mudom jim! Biror joyda, biror minbar yoki davrada ko‘krak kerish nari tursin, faxrlanib gapirganini yoki yozganini ko‘rmaysiz.

Bu xokisorlikdan kibr qidiradiganlar ham yo‘q emas: “Ulay-bulay narsani nazarlariga ilmaydilar-da!” Nachora, har kimning ta’bi, a’moli bo‘lak. Faqat bir o‘kinch borki, talant bo‘y ko‘rsatgan joyda hasad ham o‘ralashib yuradi. Ana shu o‘ralashadiganlarning ba’zan qo‘li ustun kelgani sababmi, ko‘pincha millatimiz farzandlarining ibratli ishlari haqida gap ochishdan cho‘chiymiz. Go‘yo ularning aybi – tirikligida, oramizda, to‘y-ma’raka, majlis-u mashvarat va tadbirlarda elga ko‘rinib turganida. Ato qilingan umrini yashab o‘tishi bilan birimiz qo‘yib, birimiz osmonga ko‘tarishga tushamiz: “Buyuk so‘z san’atkori! Adabiyotimizning mumtoz vakili!”

Oramizda yurganida bu gaplarni aytsak, haqimiz ketadi go‘yo. Xasta qalbiga hasad in qurgan boshqa birovi ustimizdan kuladi: “Ja oshirib yuboribsiz! O‘zimiz qatori bir odam-da!”

Bunday gaplarga Erkin aka beparvo qo‘l siltaydi: qo‘yavering, o‘ynasin! Bilasiz-ku, yaltir-yultir qog‘ozlarda tom-tom kitob chiqargan shoirlar borki, bir satr she’rini birov yoddan aytib berolmaydi. Yostiqday-yostiqday romanlar yozgan adiblar borki, birorta asarini birov, hechqursa ularni ko‘klarga ko‘tarib maqtagan o‘sha munaqqidlar ham oxirigacha o‘qimagan. Kori amali shunday bo‘lgach, nimayam deysiz? Xudoning nazari tushgan chin chavandoz baribir uloqni davradan uzib ketadi. Davridan o‘zib ketadi!

Bunday paytlarda 2014-yilning 28-aprel kuni Erkin aka bilan Abdulla Oripovning ziyoratiga, hukumat shifoxonasiga borganimizni eslayman.

Abdulla aka bizni ko‘rib juda xursand bo‘ldi. Divanda oq jildli bolishga suyanib o‘tirgan ekan. “Meni kresloga o‘tkazib qo‘yinglar-da, o‘zlaring divanga o‘tiringlar, – dedi. – Gurungga qulay”.

Ikkalamiz ikki qo‘ltig‘idan olib kresloga o‘tkazib, yelkasiga oq bolishni suyab qo‘ydik. Hanifa yanga ko‘k choy olib keldi. Abdulla aka qiynalibroq nafas olardi. Hamshiralar tomiriga tushishi qiyin bo‘layotgan ekan. Yuz-qo‘li shishgandek.

“Haliyam ancha pesh bo‘p qoldim, – dedi buyuk shoir. – Bu yerga kelganimda ahvolim xiyla og‘ir edi”.

Abdulla aka zerikibroq o‘tirgan ekan chog‘i, gurungimiz qizib ketdi.

Aytdiki, Abdulla Qahhor ham, Oybek ham hech kimga bosh egmagan, xushomad qilmagan. Yozuvchilar uyushmasiga tanda qo‘ymagan. Ular bu jihatdan o‘zlarining qo‘rg‘onini, ma’naviy qo‘rg‘onini yaratib ketdi. Erkinjon, siz ham shular qatorida turadigan zabardast ijodkorsiz. Shu paytgacha birovga yaltoqilik, xushomad qilmagansiz. Maydalashgan joyingizni ham ko‘rganim yo‘q. Shu fe’lingiz, shu yo‘lingiz menga juda yoqadi. Shu yo‘lingizdan qolmang, ukam! Bu dunyoda hamma narsa o‘tadi-ketadi. Chin so‘z qoladi!

Gap adabiyot maydoniga burilganida o‘zbek donishmandi go‘yo vasiyat qildi: “Bir-birlaringdan kamchilik emas, fazilat qidiringlar, ahil bo‘linglar. Mahalliychilikdan tiyilinglar”.

Endi sizdan so‘rayin, muhtaram gazetxon, u emas-bu emas, boshingizdan musofirlik o‘tganmi? Yolg‘izlik, g‘ariblik, judolik kunlari-chi? Qadrdon bir kalomga, suyanchiq bir dardkash qalbga zor qolgan damlaringiz bo‘lganmi?

Bo‘lmaganda-chi? Bo‘lmaganda ham “Stupka”ni o‘qigan borki, agar shuurini dunyo g‘aroyibotlaridan hayratlanish saodati tark etmagan bo‘lsa, lol-u giryon qolishi tayin. Hikoya nedir iztiroblaringizni jonlantirib, dardingizni yangilaganday bo‘ladi. Befarq qololmaysiz. Aslini olganda, san’atning kuchi ham shunda – jonni o‘rtashida! Kishi qalbining tub-tubidagi eng nozik tuyg‘ularni junbishga keltirib, xotira qo‘rg‘onini alg‘ov-dalg‘ov qilib tashlashida. Alg‘ov-dalg‘ovi bilan o‘chmas, ammo yorug‘ iz qoldirishida...

Gurunglarimizdan birida Erkin aka menga bunday degan edi: “Ko‘cha-ko‘yda karillab yurgan odamning ko‘ngliga mundoq qo‘l solib ko‘rsangiz, uning hayotda o‘z o‘rnini topolmagan bir sho‘rlik, siniq odam ekanini ko‘rasiz va tavba deysiz, hayron qolasiz. Bilamizki, “Odamzodning boshi – tangrining toshi”. Yaratgan qayerda istasa, o‘sha yerda rizq beradi. Istibdod zulmining temir panjaralari barham topib, xalqimiz istiqlolga erishganidan keyin “o‘troq” o‘zbeklar ham xorijga tariqday sochilib ketdi. Dunyoning avzoyini ko‘ring, ilgari tug‘ilgan qishlog‘ini tark etib shahar orzusiga tushishni o‘z ota-onasiga, kindik qoni tomgan yerga hurmatsizlik, hatto xiyonat deb bilgan xonanishin o‘zbegim endi qayerda nash’-u namo topsa, o‘sha yerni vatan deb bilmoqda. Global – yalpi dunyoga tutashgan el borki, ko‘chmanchi musofirga aylanib bormoqda. Taqdir taqozosi bilan begona o‘lkalarda muqim qolib ketayotganlari qancha! Hatto ichki nizolardan tilka-pora bo‘lib yotgan olis Kambodjadek o‘ta notinch davlatda ham umrguzaronlik qilib yurgan o‘zbek qavmi yo‘q emas ekan. Ular “o‘zga yurtda sulton bo‘lib” har qancha baxt-u saodatga erishmasin, toabad dilida bir armon yashaydi. E, og‘ir, dardli mavzu bu!”

“Musofir bo‘lmasdan, musulmon bo‘lmas” – darbadarlik azoblarini ko‘p tortgan ota-bobolarimizning xulosasi bu. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, bugun kurrai zaminda musofir-muhojirlar 300 milliondan oshgan.

Erkin A’zamning “Stupka”sidagi Marina yangamiz ham Rossiya va Ukrainaning turli joylaridan begona bir qishloq maktabiga muallimlikka kelib qolgan yuzlab musofirlardan biri. Sirasi, “yuzlab” – mening taxminim. Pedinstitutni bitirganidan so‘ng komsomol yo‘llanmasi bilan O‘zbekistonga yuborilgan sanamlar ishlamagan qishloq maktabi bormidi?

Chiroqchining cho‘lidagi maktabda ko‘kko‘z muallimalar bizga ham saboq bergan. Aksariyati “Stupka”dagi Arslon akamiz kabi davangir yigitlarga turmushga chiqib, yurt ahliga el bo‘lib ketgan. Ana shunday musofirlardan so‘nggisi – rahmatli Toshtemir akamizning ayoli, asli o‘zi osetiyalik tarso Sida momomiz yaqinda to‘qsonni qoralab qazo qildi. To‘qqiz farzandi, o‘ttizdan ziyod nevarasi bilan birga butun qishloq uni musulmoncha ada-qadasini joyiga qo‘yib, so‘nggi manziliga kuzatdi.

**TUMOR**

Munaqqidlar e’tirofi haq-rost: Erkin A’zamning har bir asari – inson ko‘ngliga o‘ziga xos sayohat, sarguzasht. Qahramonlari befarqlikdan yiroq, serg‘ayrat, seroqibat, mard, tanti, halol va ruhi ozod odamlar. Yozuvchi, adabiyot gap san’ati emas, so‘z san’ati, degan oltin qoidaga qat’iy amal qiladiki, go‘dakning ko‘zyoshidek toza-pokiza, samimiy satrlari kitobxonning e’tiborini mehrigiyo kabi darhol o‘ziga tortib oladi.

Asarlarining ijtimoiy-falsafiy zaminida, avvalo, eng qudratli tuyg‘u – insonga mehr-muhabbat mujassam. Ana shunday ezgu g‘oyalari bilan kitobxonning ko‘ngliga nur, tafakkuriga quvvat bag‘ishlaydi. Ming izlasangiz ham gapdonlikka moyillikni topolmaysiz, har satrida so‘zga o‘ta ziqnalikni ko‘rasiz.

...Marina yanga – tomiridan uzilgan daraxt. Eri Arslon aka bandalik qilganidan so‘ng ko‘ngilyetari, yurakdan dardlashadigani qolmaydi. Tirnoqqa zor oila yetimxonadan asrab olgan “aft-angori qoracha-yu, ko‘zlari pistoqinamo” qiz esa bo‘yi yetgach, Rossiya tomonlarga ketib qoladi. Yanganing ota-onasi allaqachon o‘tib ketgan. Yolg‘iz singlisi qay bir xorijlikka ilakishib, Portugaliyani vatan tutgan. Kelishidan, ko‘rishuvdan umid yo‘q. Bunday mahallarda bandasi, kim bo‘lmasin, ko‘ngil yoradigan do‘sti hamroz izlashi tabiiy. Marina eski dugonasi Lenanikiga otlanadi. Eridan qolgan mototsiklga hamsoyasining o‘g‘li Abdini haydovchilikka yollab, qo‘shni qishloqqa jo‘naydi.

Hikoyadagi eng ta’sirli va unutilmas tasvirlar ana shundan – mehmonning hovliga kirib kelishidan boshlanadi. Ikki rus ayolining g‘irt o‘zbekona liboslari-yu qiliq-odatlari, salomlashib-so‘rashishlari, achom-achomlari, o‘zbekcha gaplashganda sizlashib, ruschaga o‘tganda senlashishlari, birda kulib, bir-da bo‘zlashlari... xotiringizda mixlanib, muhrlanib qoladi:

– Keling, keling, Marinaoy!

– Bormisiz, Lenaxon, bormisiz?

Ikki eldosh qizil musallasdan ozgina-ozgina totinib, ko‘ngillari buzilib o‘tirganida, qo‘shnining qizchasi bosh suqadi:

– Ko‘kko‘z xola-a, xamirturushingizni berib turarkansiz, enam aytdilar.

Lenaning javobini qarang:

– Ko‘kko‘z xolang ham o‘lsin, iloyim, xamirturushi ham ordona qolsin!

Lena – qo‘ligul chevar. Yetimxonada o‘sgan, fe’li-atvori ham shunga yarasha, jikkilaganroq. Marina, muallima emasmi, xiyla vazmin, sipo.

Mezbon o‘zlarini “sho‘rpeshona” deb ataganida mehmonning jahli chiqadi. Bu gapni noshukrlikka yo‘yadi. Lena qo‘lini yoqasiga olib borib, o‘zbekchasiga tavba qiladi:

– To‘g‘ri aytasiz, dugonajon, to‘g‘ri. Xudoga shukr, hazoron shukr!

So‘ng ashula aytgilari keladi va ruslarning mashhur “Подмосковные вечера”sini tanlaydilar.

“Ikki g‘arib bir-birining kiftiga qo‘l tashlab, olis yurtlaridan esdalik, olis yurtlarining nafasini keltiradigan sog‘inchga to‘la shu hazin taronani ohista xirgoyi qila boshlaydi. Bir fursat tevarak-atrof o‘zgacha tus olib, allaqanday armonli oqshom sokinligi ingandek, qo‘shiq kuylayotganlar – sirdosh-u jondosh marfushalarga, huv devor bo‘ylab qad cho‘zgan bo‘zteraklar ham oqbadan qayinlarga aylanib ketgandek bo‘ladi”.

Ko‘kko‘z yangalarimiz-ku O‘zbekistonda o‘zining ona tilida dars bergan. Rossiyaning bilchillagan botqoq yeridan qor arimaydigan Kostroma viloyatida harbiyda yurganida bir yarim yil birorta o‘zbekni ko‘rmagan, birorta o‘zbekcha so‘zni eshitmagan, birorta o‘zbekcha kitob, gazeta-jurnal o‘qimagan anavi askar yigitning holini-ahvolini tasavvur qila olasizmi? Erkin A’zamning ko‘kko‘z yangalari “Подмосковные вечера”sini mungli-mungli kuylab, yum-yum yig‘laganlarini o‘qiganida bir zamonlar Vatan sog‘inchidan ma’yuslanib yurgan askarning yodiga Botir Zokirovning qo‘-shiqlari tushgan va kechmish nolalari jolalarga aylangan bo‘lsa, ne ajab.

Bir yarim yil deganda akasi kulchadan kattaroq plastinka yuboradi va uka bo‘lmish uni tinimsiz aylantirib, ashula tinglashdan charchamaydi:

*Barnolar ichra barno – Ra’no,*
*Gulmisan, gulyormisan,*
*Oshiqqa dildormisan,*
*Hamma gullardan a’lo – Ra’no.*

“Bitta ashulani kuniga necha marta eshitish mumkin? Oxiri bir kuni sindirib tashlayman-ov!”

Quroldoshi Sergoning yarim hazil-yarim chin bu gapini eshitib, askar yigitimiz o‘tirgan joyidan koptokdek sakrab turadi:

“Qo‘lingni tegizib ko‘r-chi! Naqd peshonangdan otaman!”

Ammo bir kuni dam olish xonasiga kiradi va undan o‘qday otilib chiqadi:

“Sergo-o! – deb hayqiradi u hayhotdek kazarmaning eshigidan. – Karapetya-yan!”

“Buncha bo‘kirasan! Nima deysan?”

Sherday tashlangan askar yigit devday keladigan armani safdoshining basharasiga kalla qo‘yadi. Yonidagi yog‘och kursi bilan boshiga solganida kursi sinib, sochilib ketadi. Ikkalasining ham boshi yorilib, ikkalasi ham qonga belanadi. Qayerdandir paydo bo‘lgan Volodya Nesterenko o‘rtaga tushadi:

“Plastinkangni men sindirib qo‘ydim! Men aybdorman, meni ur!”

Dam olish xonasini yig‘ishtirayotganida qo‘lidan tushib ketgan emish. Musichadek beozor, mo‘min qobil, qansharidan ko‘zoynak arimaydigan “professor” laqabli nozikkina askar bola o‘lganda ham bu ishni qasddan qilmas edi.

“Men aybdorman! – derdi u nuqul. – Meni ur!”

So‘ng u gramplastinka parchasiga yoqut rangli shisha yopishtirib, qalampirnusxa chiroyli tumor yasab beradi. Ahyon-ahyonda askarlarning kiyim-boshi tekshirilganida zobitlar yigitimizdan so‘raydi:

“Bo‘yningga osib olganing nima? Tumormi?”

“Yo‘q, Vatanimning bir parchasi!”

Sobiq askarning aytishicha, o‘sha tumor haligacha uning yonida.

...Ikki dugona endi qahva ichish niyatida havoncha izlab qoladi va uning o‘z ona tili – ruschada qanday atalishini eslay olmaydi. Har qancha uringani bilan eslariga kelmaydi. Marinaning kayfiyati buzilib, “ketaman”ga tushadi. Dugonasi uni uydan quruq chiqarmaslik uchun to‘rvasiga to‘rtta non va uch-to‘rt bosh uzum soladi.

No‘noq muallif hikoyani shu yerda tugatib qo‘yaqolishi mumkin edi. Biroq Erkin A’zam mavzuni umuminsoniy dard darajasiga ko‘taradi. Hikoyada “ustupka” va “stupka” so‘z o‘yinidek tuyuladi. Marina muallima Abdiga ustupkani taqdirga tan berish, murosa, ko‘nish qabilida tushuntirgan bo‘ladi. Havoncha esa qismat, ko‘rgilik, taqdir. Tangrining otilgan toshi!

“– Bu dunyoda ustupka qilmasang, stupkaga yem bo‘lasan, ukajon. Mana, shunchasiga ko‘narkan-ku odamzod.”

Stupka degan so‘zda inson qismati, sog‘inchi, armoni, baxti, mehr-muhabbati, fojiasi, alamlari, qo‘yingki, tirik odamga xos ne bir kechmishlar bo‘lsa, hammasi bor. Ha, hammasi! Adib ana shunday noyob yo‘lni topgan.

Yozuvchi nega Marinaning yo‘lini qabriston tomonga buradi? Bu yerda ham teran ishora bor. Yanga biladi, erta bir kun bu dunyodan o‘tar bo‘lsa, yostiqdoshi Arslonning yoniga qo‘yiladi.

Hikoyada yana bir lavha borki, yalt etgan o‘sha ibratli muqoyasasiz asar kemtik bo‘lib qolishi tayin edi. Marina ona qishlog‘i Nikolni qo‘msab, Voronej viloyatiga borganida o‘zini u yerda butkul yot-begona, musofir sezadi. Qachonlardir Marina kabi qizlarning ko‘zini o‘ynatgan Fedka abjir allaqachon mayxo‘rlikka berilib, vahshiyga aylangan. Marinani hatto tanimaydi ham. Shu alfozda muallima yanganing o‘z tug‘ilgan yurti bilan barcha rishtalari uziladi.

Izlagan, mulohaza qilgan o‘qirman bu ruscha sarlavhali asl o‘zbekona hikoyadan yangidan-yangi ma’no-mazmun topaveradi. Darvoqe, vaqti-zamonida ushbu durdona asarni gazetada o‘qib, ko‘zlariga yosh qalqigan sobiq askar yigit – men, o‘zim edimki, ushbu esseni bitar chog‘imda o‘shal ajib lahzalarni-da yodga oldim, ma’zur tutasiz.



TARIX VA TAQDIR

# UYUSHTIRILGAN “KO‘RSATMA” SIYOSATI QURBONLARI



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining *“Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarini kengaytirish to‘g‘risida”*gi qarorida “Tashqi ishlar vazirligi qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatiga doir chet ellardagi mavjud manbalarni izlab topish va o‘rganishda xorijdagi ilmiy-tadqiqot markazlari, nufuzli universitet va fondlar hamda soha mutaxassislari bilan yaqindan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda amaliy yordam ko‘rsatsin”, degan satrlarni o‘qir ekanmiz, ko‘plar qatori benihoya quvondik. Chunki O‘zbekistonda Rossiya va sovet mustamlakachiligi davrida qatag‘on qilinganlarning hayoti va taqdiri haqidagi noyob hujjat va materiallar ayni Moskva shahridagi qator arxivlarda saqlab kelinmoqda.**

Bizlar 2022-yil iyun-iyul oylari Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti yo‘llanmasi bilan ilmiy safarda bo‘lib, Moskvadagi qator arxivlarda qidiruv, izlanish ishlarini olib borgan edik. Bir qator o‘ta maxfiy tamg‘alar ostida saqlanayotgan Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda yuritilgan qatag‘on siyosati va uning fojiali oqibati haqida ko‘pdan-ko‘p ma’lumotlar olgan bo‘lsak-da, biroq eng qimmatli hujjatlarni ma’lum darajada ko‘rikdan o‘tkazib, so‘ng bizga yuborishmoqchi bo‘lishgan edi. Kuni kecha Rossiya davlat ijtimoiy-siyosiy tarixi arxividan o‘sha hujjat va materiallarning elektron nusxasi qo‘limizga tegdi. Bu hujjatlarning aksariyat qismi O‘zbekistondagi jadidlik harakatiga bevosita daxldor va ular hozirgacha O‘zbekiston tarixshunosligida o‘z ifodasini topmagan edi. Shu bois “Jadid” gazetasida ana shu noyob, hozirgacha ilmiy iste’molga kiritilmagan manbalardan ayrimlarini keltirishni lozim bildik.

Partiyada tozalov o‘tkazish bo‘yicha 1933-yil 29-aprelda VKP(b) Markaziy Komiteti huzurida markaziy komissiya tashkil qilingan edi. “Partiyani tozalash” bahonasida milliy respublikalardagi markazdan mustaqil bo‘lishga intilmoqchi bo‘lgan kuchlarni butunlay yo‘q qilish, partiyalarni Moskvaning “kommunistcha” sabog‘ini olgan kadrlar bilan to‘ldirish, xususan, O‘zbekistondagi sobiq jadid arboblar, milliy ziyolilar qatlamini hokimiyatdan butunlay chetlatib, ularni keyinchalik qatag‘on qilish uchun zamin hozirlash ishlari amalga oshirilgan. Markaziy Osiyodagi kommunistik tashkilotlarni “tozalash” vazifasi 1929-yilga qadar OGPUning Sharqiy bo‘limi rahbari, 1934-yildan VKP(b) ning partiyaviy nazorat komissiyasi rahbari lavozimida faoliyat ko‘rsatayotgan Yakov Xristoforovich Petersga yuklatilgan. U Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekiston SSRda turli rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko‘rsatayotgan davlat va jamoat arboblarini millatchilik va ayirmachilikda ayblash, ularni partiya safidan chiqarish maqsadida bir necha mahalliy partiya vakillariga zug‘um o‘tkazish orqali ulardan “chaquv xatlari”ni olishga muvaffaq bo‘lgan.

Quyida Ali Rasulovning Markaziy Osiyodagi milliy rahbar xodimlarni “fosh qilish”ga doir ko‘rsatmalari aks etgan telegramma matnining muhim qismlarini keltiramiz:

**“Partiyani tozalash markaziy komissiyasi raisi o‘rtoq Petersga**

*O‘zbekiston Kommunistik partiyasi (b) a’zosi Ali Rasulovich Rasulovdan, (partiya bileti № 239879, 1917-yil 1-sentyabr)*

### BAYONOT

*Ittifoq Aloqa Xalq Komissarligining Markaziy Osiyo bo‘yicha boshqarmasi qoshidagi partiya tashkiloti boshlang‘ich tozalash komissiyasi meni yashirin millatchilik tashkilotiga mansubligim tufayli partiya safidan chiqarib yubordi.*

*Tozalash paytida men o‘sha tashkilot haqida hech narsa demadim. Bu bayonotimda men 1919-yildan 1923-yilgacha a’zo bo‘lgan “Ittihod va taraqqiy” millatchilik tashkiloti faoliyati to‘g‘risida o‘zim bilgan barcha tafsilotlarni aytib beraman.*

*Men Turkistonda chorizm ag‘darilganidan so‘ng davlat apparatida va jamiyat hayotida faol ish boshlagan ziyolilar guruhiga mansub bo‘lganman. Men ham boshqa milliy ziyolilar kabi millatparvar edim.*

*1917-yil oxirida yoki 1918-yil boshida meni direktor Asfandiyorovning uyida bo‘lib o‘tgan bir uchrashuvga taklif qilishdi. Ushbu yig‘ilishda 20 tagacha odam qatnashgandi. Men ular orasidan quyidagilarni eslab qolganman: 1) Men – Rasulov, 2) Asfandiyorov – (Qozog‘istonda ishlaydi), 3) Risqulov – (Moskvada), 4) Cho‘qayev – (surgunda), 5) Ubaydulla Xo‘jayev – (surgunda), 6) Kutebarov – (Qozog‘istonda ishlaydi), 7) Behbudiy – (amir tomonidan o‘ldirilgan), 8) Saidnosir Mirjalilov – (surgunda), 9) Norbo‘tabekov – (O‘zbekiston Xalq Komissarlari Sovetida ishlaydi), 10) Xo‘janov – (Markaziy Osiyodagi Ittifoq Yer-suv xalq komissarligida mas’ul), boshqalarning ismlari esimda yo‘q.*

*Bu yig‘ilish ulkan siyosiy ahamiyatga ega edi, chunki unda ilk bor muxtor hukumat tuzishga qaror qilingan. Yig‘ilish ikkita oqimdan iborat edi – biri bolsheviklar bilan hamkorlikda ishlash tarafdorlari, ikkinchisi RSFSRdan mustaqil bo‘lgan Turkiston Muxtoriyati davlatini tuzish tarafdorlari. Ikkinchi yo‘nalish Cho‘qayev boshchiligida ko‘pchilik a’zolar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Birinchi harakatni Risqulov boshchiligidagi kichik guruh yoqlab chiqqan edi.*

*Bu yig‘ilishdan ko‘p o‘tmay Qo‘qonda Cho‘qayev, Ubaydulla Xo‘jayev, Norbo‘tabekov va Obidjon Mahmudovlar tomonidan Muxtoriyat hukumati tashkil etildi.*

*Keyinroq bildimki, Asfandiyorovning uyida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda Qo‘qon muxtoriyatini tashkil etish tarafdorlari “Ittihod va taraqqiy” nomli tashkilot a’zosi sifatida so‘zga chiqqan ekanlar.*

*Ta’kidlaganimdek, men 1919-yilda “Ittihod va taraqqiy” tashkilotiga a’zo bo‘ldim.*

### TASHKILOTNING TARKIBI HAQIDA

*Toshkentda ikkita qo‘mita – butun Markaziy Osiyoga rahbarlik qiluvchi markaziy qo‘mita va Sirdaryo viloyatidagi ishlarga rahbarlik qiluvchi Toshkent qo‘mitasi mavjud bo‘lgan.*

*Markaziy qo‘mita tarkibiga quyidagilar kirgan: 1) Munavvar qori – rais, 2) Tursunxo‘jayev – rais o‘rinbosari, 3) Sadriddin Maxsum – Markaziy qo‘mita a’zosi, 4) Miyon Buzruk – Markaziy qo‘mita a’zosi, 5) Risqulov – Markaziy qo‘mita a’zosi, 6) Norbo‘tabekov – Markaziy qo‘mita a’zosi, 7) Hoji Safo Jo‘raboyev – Markaziy qo‘mita a’zosi bo‘lgan va bir vaqtning o‘zida Samarqand tashkilotini ham boshqargan, 8) Fayzulla Xo‘jayev – Markaziy qo‘mita a’zosi, 9) Shokirov – Markaziy qo‘mita a’zosi.*

*Toshkentdagi oblast qo‘mitasi tarkibiga: MQning bir qancha a’zolari: Toshkent qo‘mitasiga amalda rahbarlik qilgan Munavvar qori, Tursunxo‘jayev, Sadriddin Maxsum, Norbo‘tabekov kirdi. Toshkent qo‘mitasi tarkibiga Markaziy Qo‘mita a’zolaridan tashqari men – Rasulov, Laziz Azizov, Abdulhay Tojiyev va Burhon Xo‘jayev (Davlat bankida ishlaydi) kirdilar. Ehtimol, boshqalar ham kirgandir, lekin hozir esimda yo‘q.*

*Bilishimcha, “Ittihod va taraqqiy” tashkiloti a’zolarining soni anchagina ko‘p edi. O‘sha davrdagi barcha sovet ishchilarining 95 foizi shu tashkilotga a’zo bo‘lgan desam adashmagan bo‘laman. Men hozirda tashkilot a’zosi sifatida aynan kimlarni bilishimni aytolmayman, agar eslasam yana qo‘shimcha ro‘yxat beraman.*

### TASHKILOT FAOLIYATI HAQIDA

*Men Toshkent va Buxoro qo‘mitalari ishida shaxsan qatnashganman, shuning uchun men tashkilotning Toshkent va Buxoro qo‘mitalarining faoliyati haqida aytib beraman.*

*Tashkilot 1919-yilning o‘rtalarigacha asosan madaniy-ma’rifiy faoliyatni rivojlantirish, yoshlar o‘rtasida millatchilik g‘oyalarini joriy etish va panturkistik ruhda tarbiyalash faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lgan.*

*Millatlar xalq komissarligining ko‘rsatmasi bilan Toshkentda musulmon kommunistik partiyasini tuzish uchun Moskvadan kelgan Abduqodir Muhiddinovning Toshkentga kelishi bilanoq tashkilot faoliyati yanada faollashdi.*

*Muhiddinov dastlab Muskompartiya raisi bo‘lgan, keyinroq uning o‘rniga Tursunxo‘jayev tayinlangan. Uning kotibi Shokirov bo‘lgan.*

*Tashkilot o‘sha Muskompartiya orqali ham markazdagi, ham mahalliy sovet va partiya apparatlarini faol nazoratga oldi va ular orqali o‘z yo‘nalishini davom ettirdi.*

*Umuman olganda, tashkilot musulmon kommunistik partiyasidan o‘zining aksilinqilobiy faoliyatini amalga oshirish uchun qonuniy imkoniyat sifatida keng foydalandi.*

*1919-yilda Turkistonga o‘rtoq Eliava boshchiligidagi Turkkomissiya yetib keldi. Uning birinchi harakati yagona kommunistik partiyani tuzish va viloyat qo‘mitasiga saylovlar uyushtirish edi. Muskompartiya butunlay RKP bilan birlashtirib yuborildi. Tursunxo‘jayev uning viloyat qo‘mitasi raisi etib saylandi.*

*Oradan uch-to‘rt oy o‘tgach, Turkkomissiya va viloyat qo‘mitasi o‘rtasidagi munosabatlar o‘ta keskinlasha boshladi. Tashkilot ta’sirida viloyat qo‘mitasining Turkkomissiya bilan aloqalari shu qadar keskinlashib ketdiki, Turkkomissiya Moskvaga qaytib ketishga majbur bo‘ldi.*

*Turkkomissiya Moskvaga jo‘nab ketishi bilan viloyat qo‘mitasi Risqulov va Nizomiddin Xo‘jayevdan iborat delegatsiyani Moskvaga yubordi va ular bilan Kucherboyev ham kotib sifatida bordi. Bu delegatsiya RKP oldida o‘zining milliy manfaatlarini himoya qilishi, o‘zining kommunistik partiyasini va RSFSRdan mustaqil davlatni yaratishi kerak edi.*

*Moskvadagi delegatsiyamiz taniqli tatar xalqi yetakchilari Zakiy Validiy va Sulton Galiyev bilan yaqinlashdi, ular rahbarligida platforma tuzildi (ular buni “instruksiya” deb ataydilar), bu platforma keyinchalik Turkistondagi “Ittihod va taraqqiy” tashkilotining harakat dasturiga aylandi.*

*Tashkilot MQ a’zolarining salmoqli qismi Buxoroga ko‘chib o‘tdi. Munavvar qori shaxsan menga Buxoroga ko‘chib o‘tishining asosiy sababi Fayzulla Xo‘jayevning taklifi ekanligini ma’lum qildi.*

*2-3 kundan so‘ng Muhiddinovning uyida yig‘ilish chaqirildi.*

*Bu yig‘ilish tashkiliy xarakterga ega bo‘lib, unda Markaziy Qo‘mita tuzilgan va butun Buxoro hududida yacheykalar tashkil etishga qaror qilingan.*

*Tashkilot tuzish taklifini Munavvar qori bildirgan va u Fayzulla Xo‘jayev taklifi bilan Buxoroda tashkilot tuzishga yordam berish uchun kelganini ma’lum qilgan.*

*Bu yerda u Turkistonning siyosiy ahvoli, Buxoro inqilobining ahamiyati haqida keng ma’ruza qildi: Biz Turkistonni boy berdik, endilikda Buxoro mustaqilligini har qanday holatda ham himoya qilishimiz, Buxoroda mustahkamlanib, uning mustaqilligiga tayangan holda butun Turkiston mustaqilligiga erishishimiz kerak, deb aytdi.*

*Ushbu yig‘ilishda viloyatlarda mahalliy tashkilotlar tuzish uchun mas’ul shaxslar belgilandi. Fayzulla Xo‘jayev va Muhiddinovlarga Munavvar qori tomonidan mahalliy tashkilotlar tuzish uchun ajratilgan shaxslarni sovet tartibida ishga joylashtirish taklif qilindi.*

*Bu yig‘ilishda shaxsan menga xavfsiz uy tashkil etish topshirildi, uni ta’minlash masalasi Yunusov Qudratullaga yuklatildi. Men uning kvartiramda yashashini va tribunalda tergovchi bo‘lib xizmat qilishini ta’minladim. Yunusovda tashkilotning texnikalari (shifrlar va boshqalar) bor edi, unga turli joylardan xatlar bilan kuryerlar kelishardi. Mening vazifam Yunusovning ko‘rsatmasi bo‘yicha kuryerlar va boshqa shaxslarga hujjatlarni berish bo‘lgan.*

*Bundan tashqari, yig‘ilishda barcha nozirlarga tashkilotning Buxorodagi va mahalliy qo‘mitalaridan odamlarni ishga olishni ta’minlash taklif etildi.*

*Buxorodagi tashkilot kuchayib, yirik ishlarni yo‘lga qo‘ygach, Munavvar qori bir qancha shaxslar bilan Turkistondagi ishlarga rahbarlik qilish uchun Toshkentga jo‘nab ketdi.*

*Uning Buxoroga jo‘nab ketishidan avval yana bir majlis o‘tkazilib, unda joylardan ko‘p odamlar qatnashdilar, chunki bu yig‘ilish Buxoro Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining Plenumi bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelgan edi.*

*Yig‘ilishda Munavvar qori ma’ruza qildi. Uning ma’ruzasi yuzasidan Muhiddinov, Fayzulla Xo‘jayev, Usmon Bey (turk) va boshqa bir qancha shaxslar so‘zga chiqdilar. Nutqning umumiy ohangi – tashkilot yetarli darajada mustahkamlangan va katta yutuqlarga erishganligida edi.*

*Majlis a’zolari, ayniqsa, turk millatiga mansub Ali Rizo va Chorjo‘yda turkman otryadi rahbari Musoxonov va Yoqubovlar tashkilot nomi ostida militsiya otryadlarini tashkil qilish va mavjudlarini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratdilar. Tashkilot o‘zining qurolli kuchi sifatida militsiya bo‘linmalariga tayanishi belgilandi.*

*Bu yig‘ilishda Munavvar qori Toshkentga jo‘nab ketishini e’lon qilib, o‘z vakolatlarini Turkiston Markaziy Qo‘mitasi vakili sifatida Tursunxo‘jayevga o‘tkazayotganini ko‘rsatib o‘tdi.*

*Munavvar qori ketganidan keyin Buxoroga Zakiy Validiy va u bilan birga Xo‘janovning qarindoshi bo‘lgan qandaydir qozoq keldi, uning familiyasi Tursunxo‘jayevga yaxshi tanish.*

*Men Zakiy Validiy ishtirokidagi Markaziy Qo‘mita majlislarida bir necha bor qatnashganman. Zakiy Validiy o‘z chiqishlarida qudratli qurolli kuchlarini yaratish masalasini keskinlik bilan ilgari surdi. Shuningdek, u tashkilotga Arifovning harbiy nozir etib tayinlanishini tavsiya qildi hamda uni o‘zining odami deb atadi.*

*Men 1923-yil avgust oyida doimiy faoliyat uchun Toshkentga qaytdim. Buxorodaligimdayoq tashkilot tomonidan Samarqandga katta miqdordagi oltin Fayzulla Xo‘jayevning qarindoshi Hamraxonga (familiyasi esimda yo‘q, hozir qorako‘lchilik sovxozida direktor bo‘lib ishlaydi) saqlash uchun jo‘natilganini bilar edim. Men tashkilotning oltinlari deb emas, balki oltin o‘g‘irlanishi haqida Turkkomissiya raisi o‘rtoq Lyubimovga aytdim. Keyin qanday choralar ko‘rilgani haqida hech narsa bilmayman.*

*Toshkentga ko‘chib kelganimdan keyin tashkilot bilan aloqani butunlay uzdim. Hech kim menga tashkilotning tugatilgani haqida xabar bermadi. Bu davrda Munavvar qori va boshqa bir qator tashkilot a’zolari hibsga olindi.*

*10.09.1934 (A.Rasulov)”*

Tabiiyki, bu “ko‘rsatma”lar sovet hukumati vakillarining “ijod mahsuli” bo‘lgani ehtimoldan xoli emas, chunki bu xatdan asosiy maqsad tuzum tomonidan avvaldan tayyorlangan “ssenariy”ni boshqa inson qo‘li bilan amalga oshirish edi, xolos.

Ali Rasulov va boshqalarning “ko‘rsatma”lari asosida nomi zikr etilgan barcha shaxslar partiya safidan o‘chirilgan, lavozimidan bo‘shatilgan yoki ijtimoiy-siyosiy hayotdan to‘laligicha chetlashtirilgan. Qolaversa, 1937-1938-yillardagi fojiali “Katta terror” davrida aynan o‘sha 1934-yildagi partiyani “tozalash” jarayonida tuzilgan va asosan bo‘htonlardan iborat ayblov materiallari ko‘plab milliy rahbar kadrlarning jismonan mahv etilishiga sabab bo‘lgan omillardan biri hisoblangan. Partiya safini “yot unsur”lardan tozalash ishida jonbozlik ko‘rsatgan Y.X.Petersning o‘zi ham sovet hukumatining razil maqsadlarini “qoyilmaqom” darajada amalga oshirganiga qaramay 1937-yil 27-noyabrda NKVD tomonidan hibsga olingan. U aksilinqilobiy faoliyat olib borganlikda ayblanib 1938-yil 25-aprelda Moskvadagi “Kommunarka” poligonida otib tashlangan.

**Rustambek SHAMSUTDINOV,**
**Azizbek MAHKAMOV,**
*AndDU tuzilmasidagi*
*Qatag‘on qurbonlari xotirasi*
*muzeyi xodimlari*

XOTIRA AZIZ

# QATAG‘ON QURBONLARI

**(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).**

**Otantoy Sotilganov** – Qiziljar rayoni, Karavon qishlog‘ida yashovchi, millati qirg‘iz. Qirg‘iziston ASSR fuqarosi, uylangan. Boy-chorvador, yer-suv islohoti davrida xo‘jaligi qisman tugatilgan. Tergovda unga quyidagi ayblar qo‘yilgan:

**a)** 1929-yil kuzidan Nosirxonto‘ra rahbarligidagi bosmachilar harakatiga qo‘shilgan va sentyabr-oktyabr oylari davomida hududni yaxshi bilganligi tufayli bosmachilarni qizil armiya zarbasidan bir necha bor qutqarib qolgan;

**b)** bosmachilar tor-mor etilgan 1929-yil oktyabrda yashirin holatda sovet hokimiyatini ag‘darish maqsadida Nosirxonto‘ra boshchiligida qo‘zg‘olonchilarning guruh va tashkilotlarini tuzishda faol qatnashgan;

**v)** 1930-yil 2-iyunda Qoratog‘ hududida qizil otryadlar bilan bo‘lgan jangda ishtirok etgan, yarador bo‘lgan qo‘rboshi Istambekni jang maydonidan olib chiqqan, ta’qib qilayotgan otryaddan yashirgani uchun O‘zSSR Jinoyat kodeksining 58-67-moddalari bilan ayblangan, aybini tan olgan.

**Mulla Samiulla Safiullayev** – Namangan shahridan, millati tatar, O‘zSSR fuqarosi, diniy ma’lumotli, sobiq katta yer egasi, savdogar, yer-suv islohotida mulki qisqartirilgan, oilali, sudlanmagan. Namangandagi aksilinqilobiy tashkilot a’zosi, tashkilotga faollarni jalb etish bilan shug‘ullangan. Nosirxonto‘rani sobiq ofiser va oq gvardiyachi Gumbin bilan bog‘lagan, qo‘zg‘olon rejasini tuzishda va ittifoqning markaziy qismlaridan tashkilot ehtiyojlari uchun harbiy mutaxassislarni jalb qilish, o‘q-dorilar bilan ta’minlash, Polshaga delegat yuborishni tashkil etish maqsadida Gumbin bilan muzokaralarda ishtirok etgan. O‘zSSR JK 58–67-moddalari bilan ayblangan.

**Gumbin Ignatiy** – Tatariston Respublikasi Mamadish kantoni, Komarovka qishlog‘idan, cho‘qintirilgan, tatar, RSFSR fuqarosi, savodli. 1930-yil bahorida O‘rta Osiyoga kelgunga qadar Volga paroxodlarida bufetlar ijarasi bilan shug‘ullangan. Revolyutsiyaga qadar chor armiyasida unter-ofitser, 1917-yildan praporshik, revolyutsiyadan keyin Mamadish kantoni harbiy komissar yordamchisi, 1918-yildan 1922-yilgacha kommunist, oqlarda safarbarlik bo‘yicha qisqa vaqt xizmat qilgan, sudlangan. Aksilinqilobiy tashkilot a’zosi, qo‘zg‘olonning umumiy rejasini ishlab chiqishda ishtirok etgan. Namangan qal’asini bosib olish va temir yo‘l ko‘priklarini portlatishga rahbarlik qilgan. Nosirxonto‘ra topshirig‘i bilan bosmachilar otryadlariga o‘q-dorilarni tayyorlovchi ustalar va sobiq ofitserlarni yollash uchun Qozon shahriga borgan. Nosirxonto‘ra bilan hamkorlikda bosmachilardan tashkil topgan delegatlarni Polshaga jo‘natishga tayyorlagan. O‘zSSR JK 58–67-moddalarida ko‘rsatilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan, aybiga iqror bo‘lmagan.

**Eshon Dadaxon Nosirxonov** – Koson shahridan, millati tojik. O‘zSSR fuqarosi, savodli, uylangan. Nosirxonto‘raning o‘g‘li, sudlanmagan. 1929-yilda avval harakatda bo‘lgan guruhlarni faollashtirish uchun xizmat qilgan. Madumar qo‘rboshi bilan muzokaralar olib borgan. Shokaptarda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qo‘zg‘olon ko‘tarish maqsadida tashkillashtirilgan bosmachilarning yig‘ilishida qatnashgan, bosmachi guruhining faol a’zosi. Nosirxonto‘raning maxsus topshiriqlarini bajargan. Janubiy Qirg‘izistonga Nosirxonto‘ra bilan qochishdan oldin Namanganga 6 dona qirqma qurolni keyinchalik bosmachilik maqsadlarida foydalanish uchun olib borib yashirib qo‘ygan. O‘zSSR JK 58-67-moddalarida ko‘rsatilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

**Mansurboy Sherg‘oziyev** – Namangan rayoni Qizilqiya qishlog‘ida yashagan. Millati o‘zbek, O‘zSSR fuqarosi, mahalliy masjid oqsoqoli, savodsiz, uylangan. Uyi bor, aniq mashg‘ulotga ega emas, sudlanmagan. Bosmachilik, qo‘zg‘olonchilik aksilinqilobiy tashkilotining a’zosi va tashkilotning Qizilqiya yacheykasi tashkilotchi rahbarlaridan biri. Tashkilotga a’zolarni jalb qilishda faol harakat qilgan. O‘z o‘g‘li Oxundada (otishmada o‘lgan)ni tashkilotga qabul qilgan. Bir necha bor Nosirxonto‘ra va uning qurolli yigitlarining yashirinishiga yordam bergan. Ularni qurol-yaroq, oziq-ovqat bilan ta’minlab turgan. O‘zSSR JK 58–67-moddalarida belgilangan jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan.

**Qurbonboy Yusufboyev** – Namangan rayoni, Qizilqiya qishlog‘idan. Millati o‘zbek, O‘zSSR fuqarosi, savodsiz, uylangan, dehqonchilik va dallolchilik bilan shug‘ullangan. Sudlanmagan. Tashkilotning Qizilqiya yacheykasi faol a’zosi. Bir necha bor Nosirxonto‘ra va uning odamlarini Qizilqiyada qabul qilgan. Tashkilotga o‘zining o‘g‘li Madumarni jalb etgan. U orqali bosmachi qo‘zg‘olonchi tashkilotga yangi a’zolarni yollagan. O‘zSSR JK 58–67-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda ayblangan.

**Hojixon Qanoatov** – Yangiqo‘rg‘on rayoni Kushan qishlog‘idan. Millati o‘zbek, O‘zSSR fuqarosi, uylangan. Uyi bor, sudlanmagan. Nosirxonto‘ra va Istambeklarning bosmachi qo‘zg‘olonchi tashkilotining Kushan yacheykasi a’zosi bo‘lgan. Nosirxonto‘raning bosmachi qo‘zg‘olonchi tashkiloti rahbarlarining aloqachisi hamda bosmachi qo‘zg‘olonchi tashkilotiga yangi a’zolarni yollash bo‘yicha maxsus topshiriqlarni yetkazgan. O‘zSSR JK 58–67-moddalarida ko‘zda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda ayblangan.

**Rustambek SHAMSUTDINOV,**
**tarix fanlari doktori, professor**
**Nigoraxon AKBAROVA,**
**muzey ilmiy xodimi**

**(Davomi kelgusi sonda).**

TADQIQOT

# SUVRATLAR TARIXDAN SO‘ZLAR

**Jahon afkor ommasini dunyoga mashhur san’at asarlari, ularning ayni kundagi bahosi bilan birga muallif tomonidan chizilgan suvratga prototip sifatida kim tanlangani ham qiziqtirib keladi. Birgina misol: nomi tillarda doston “Mona Liza” asarining prototipi kimligi haqidagi savol nafaqat san’atshunoslarga, balki ushbu suvratning dovrug‘ini eshitgan barchaga birdek qiziqligi aniq.**



*Pavel Benkov. “Avtoportret”.*

Ayni savol zamirida tarix mujassamdir. Tarix – bu saboq. Shuning uchun ham moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayrli (Abdulla Qodiriy), deydilar. Tarixiy haqiqatlar, vaqtning shafqatsiz qa’rida ko‘milib yotgan sirlarga ilm-u tadqiq ishlari ochqich bo‘lib xizmat qiladi. Shu kunlarda arxivlarning deyarli barchasida qizg‘in ish jarayonlari ketayotir. Siyosiy qatag‘onga uchragan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, ularning xotirasini abadiylashtirish borasida belgilangan vazifalar ijrosi jadal tus oldi.

Ana shunday qizg‘in jarayonlar ichra kechayotgan tadqiqot ishlari chog‘ida tasviriy san’at tarixiga oid qiziqarli ma’lumotga duch keldik. Ma’rifatparvar jadidlar bilan yaqin aloqada bo‘lgan, prokuror, xattot va tarjimon sifatida faoliyat olib borgan Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqov (Abduxoliqzoda)ga taalluqli hujjatlar orasida O‘zbekiston rangtasvirining yetakchi vakillaridan biri Pavel Benkov tomonidan ishlangan kartina yurtimizdagi muzeylardan birida saqlanayotgani to‘g‘risidagi ma’lumot uchradi.

Darhol ishga kirishib, yurtimiz muzeylari fondidagi elektron bazalardan rangtasvir asarini izlashni boshladik. Natijada O‘zbekiston davlat san’at muzeyidagi asarlar orasidan uzoq qidirilgan suvratni topishga muvaffaq bo‘ldik. Topilma O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Pavel Petrovich Benkov qalamiga mansub, muzey oltin fondida saqlanayotgan noyob san’at asari edi. Ushbu qadimiy va qimmatli suvrat 1966-yilda muzey fondiga qabul qilib olingani haqidagi ma’lumotlar asar pasportida aks etgan. Shuningdek, asar muzeyning kirim kitoblariga to‘liq hujjatlashtirib, qayd etib olinganligi haqida ham ma’lumotlar bor ekan.



*“Oqsoqol suvrati”. Pavel Benkov. 1940-yil.*

Shu o‘rinda ushbu asar va uning prototipi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoq joizdir. Mashhur rassom Pavel Benkov 1929-yilda yurtimizga qilgan ikkinchi tashrifida O‘zbekistonda butunlay qolishga qaror qiladi va Samarqandda yashay boshlaydi. Taqdir taqozosi bilan o‘z davrining taniqli ziyolisi Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqov bilan qo‘shni bo‘lib qolishadi. O‘sha kezlarda rassom yashaydigan mahallada rus tilini puxta biladigan, ilm-u san’atdan suhbat quradigan odamlar sanoqli edi. Moskva va Sankt-Peterburgda yashagan, ta’lim olgan samarqandlik Mirzo Qo‘qonboy bilan Pavel Benkovning gapi chiqishib, ular uzoq suhbatlashadigan, turli sohalar bo‘yicha fikrlashadigan darajada ulfatga aylanishadi. Ana shunday kunlarning birida rassom suhbatdoshining qiyofasini tarixga muhrlash maqsadida uning obrazli portretini qalam bilan oddiy qog‘ozga chizib oladi. Keyinchalik musavvir bu tasvirni to‘liq portret janridagi rangtasvir asariga aylantiradi va unga “Oqsoqol portreti” deb nom beradi.

Rassom o‘z ijodiy asarida Qo‘qonboyning keksalik chog‘ini tasvirlagan. 1940-yilda chizilgan ushbu asar Benkovning real tasvirlash uslubida yaratilgan bo‘lib, unda keraksiz detallar deyarli yo‘q. Rassom 72 yoshli Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqovni ulug‘ yoshdagi ziyoli, qo‘lida kitob ushlagan holatda tasvirlagan. Muallif uni ana shunday obrazda ko‘rgan.

Portretdagi qahramon haqidagi arxiv hujjatlaridan ma’lum bo‘lishicha, Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqov jadidlar bilan yaqin bo‘lgan. Toshkent jadid ma’rifatparvarlaridan Munavvar qori Abdurashidxonovning 1927-yilda Samarqandga borishi munosabati bilan mahalliy ziyolilar Mirzo Qo‘qonboyning uyida uning sharafiga ziyofat berganligi va shu ziyofatda Cho‘lpon ham ishtirok etgani, keyinchalik u Qo‘qonboyning xonadonida bir necha muddat yashaganligi aniqlangan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan “Oyina” jurnalida faoliyat olib borgan noshir Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqov badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan. Uning “Jizzax qo‘zg‘oloni”, “Qamchisidan qon tomadi”, “Istadjon”, “Tog‘ qizi” asarlari o‘zining tarixiy, maishiy mavzularni chuqur yoritgani, o‘tmishdagi voqeliklarning kelib chiqish sabablari tahlil qilingani, azaliy maishiy muammolardan chiqish yo‘llari va yechimlari berilgani bilan ahamiyatlidir.

Yana bir qimmatli ma’lumot: adolatparvar, mohir tarjimon Mirzo Qo‘qonboy Jizzax qo‘zg‘oloni ishtirokchilari ustida bo‘lgan sudda ularning 30 nafarini o‘lim jazosidan saqlab qolishga erishgan ekan.

Ana shunday shonli hayot va murakkab taqdir egalari hayotidan so‘zlovchi tarixiy rangtasvir asarlari bilan bog‘liq fakt va hujjatlarga asoslangan ma’lumotlar o‘z sohasida jadidlik harakatlarini olib borgan insonlarning bugungi avlodlari, qolaversa, ilmiy jamoatchilik uchun ham birdek qiziq va qadrlidir.

**Vasila FAYZIYEVA,**
**O‘zbekiston davlat san’at muzeyi direktori**
**Gulra’no ORIFJONOVA,**
**Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti doktoranti**

YANGI NASHR




## QALB KO‘ZI OCHIQ JURNALIST

**“...Hamma ham bu dunyoda bir iz, bir ezgu nom qoldirishni o‘ylab yashaydi. Insonning mehnatlari ertadir-kechdir e’tirof qilinsa, bu uning harakatiga g‘ayrat, kuchiga qanot beradi, albatta...” Yozuvchi uchun mehnati samarasi o‘laroq, yozganlari kitob bo‘lib chiqsa, o‘quvchilarini topsa, bundan katta baxt bo‘lmasa kerak.**

Taniqli jurnalist, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Husan Ermatovning yangi kitobi “Sokin daryo mavjlari” deb nomlangan bo‘lsa-da, uning ichida atrof-javonibga uyg‘oq nigoh, ijtimoiy voqea-hodisalarga nisbatan fuqarolik qat’iyati mujassam. Kitobda muallifning respublika matbuotida e’lon qilingan publitsistik maqolalari jamlangan bo‘lib, ularda asosan bugungi kunning dolzarb mavzulari qalamga olingan.

Ayniqsa, matbuot va media sohasiga oid maqolalar, jadal elektron axborot maydonining yuzaga kelishi ortidan gazetachilik, obuna masalalarida paydo bo‘lgan muammolar kuyunchaklik bilan yoritilgan. Xalq ma’naviyatini oshirishga oid o‘rinli mulohazalar, tanqidiy fikrlar kishini o‘ylashga, mushohada qilishga undaydi. Maqolalarni o‘qish jarayonida kishida beixtiyor, millat kelajagi uchun javobgarlik hissi qo‘zg‘oladi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Ahmadjon Meliboyev to‘plamga yozgan so‘zboshisida “...Qalb ko‘zi ochiq jurnalist kasal xuruj qilmay turib, vaqt va imkon borida bong urishi, ogohlikka chorlashi zarur. Husan Ermatov qalamiga mansub maqolalarni o‘qib borayotgan, teleko‘rsatuvlarda bildirgan, bildirayotgan salmoqli fikrlaridan xabardor kishi unda ayni shu fazilat – oldindan ko‘ra olish qobiliyati mavjudligiga amin bo‘ladi...”, deydi. Bu tavsiflarning qanchalik to‘g‘ri ekaniga esa “Sokin daryo mavjlari”ni o‘qib amin bo‘lishingizga shubhamiz yo‘q. O‘ylaymizki, qalbi uyg‘oq, tafakkuri teran publitsistning o‘y-mulohazalari, keskin fikrlari sizni-da befarq qoldirmaydi.

**Sh.ALIYEV**

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

**Бош муҳаррир:**
Иқбол Мирзо

**Бош муҳаррирнинг биринчи ўринбосари:**
Ҳумоюн Акбаров

**Масъул котиб:**
Шуҳрат Азизов

**Навбатчи муҳаррир:**
Гулчеҳра Умарова

**Саҳифаловчилар:**
Эркин Ёдгоров
Нигора Тошева

**Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.**

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 5 975
Lotin yozuvidagi adadi – 11 924
Media kuzatuvchilar – 19 615
Buyurtma: G – 840.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



**Manzilimiz:**
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
**Telefonlar:**
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.**
**Bosmaxona manzili:**
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 18:50
Sotuvda narxi erkin.

TARMOQLARDA NIMA GAP?

## “MAOSH OLGANDIM...”



**Maosh olgandim. Eng avval kitob do‘koniga kirdim. U yerdan hazrat Rumiyning “Ichindagi ichindadur” kitobini sotib oldim. Keyin kiyim bozoriga o‘tdim. Hamma o‘zi bilan, o‘z yumushi bilan band. Kimdir sotadi, kimdir oladi. Kimdandir kamayadi, kimdadir ko‘payadi...**

Men esa xayolan hazrat bilan gaplashib ketyapman. Qimmatbaho kiyimlarga qarashga u kishidan uyalaman. Dunyoning matohi boshimni aylantirayotganini sezib qolmasinlar-da, deyman. Odmigina kiyimlarga nazar tashlayman.

Odamlar bilan tiqilinch yo‘lakda kimdir meni turtib o‘tadi, kimdir oyog‘imni bosib oladi, keyin kechirim ham so‘ramay, beparvo o‘tib ketaveradi. Men esa ahamiyat bermayman. Ahamiyat berishga Rumiy hazratlaridan xijolat bo‘laman. To‘g‘ri-da, turtsa nima bo‘libdi, yiqilib ketdimmi yo oyog‘imni bosganiga mayib bo‘ldimmi? Yo‘q, unda nega ranjishim kerak?! Koyishdan tilimni tiysam nimamdir kamayib qolarmidi? Asabimni egovlab foyda topganmanmi biror marta?

– Bu ro‘molni men olayotgandim, – dedi qoshini chimirib bir ayol qo‘limdagi ro‘molni tortqilab.

Ha, mayli, olaversin, boshqa topilib qolar shunaqasidan, deb o‘yladim ichimda. Afsus, aynan shu rang va shunaqa gullisidan atigi bitta qolgan ekan. Esiz, onam shu rangni yoqtirardi-da. “Anorday lovlov yonib tursa”, derdi kiyimlarga qaraganda. Iltimos, shu ro‘molni men olaqolay, demoqchi bo‘ldim yonimda pul sanayotgan ayolga. Ammo shayxdan istihola qildim. U sumkamda turib, vujudimga o‘t qo‘yar, ko‘ngil olamimni kezib yurardi. “Boshni ro‘mol yopadimi yo uning guli, rangi asqotadimi?” degandek tuyuldi.

Ha, chanqagan odam uchun piyolaning guli emas, uning ichidagi suv muhim bo‘lganidek, men ham mohiyatga emas, tashqi tasvirga e’tibor qaratayotgandim.

Bozorda ortiq qolgim kelmadi. Tezroq uyga borsam-u, kitobni ochib, hazrat bilan suhbatlashsam...


**E’tibor NORBO‘TAYEVA**
**Facebook**

YANGI LUG‘AT

## ATAMALAR SHARHI




**DEMO –** mahsulot turi haqida yoki mavjud biror bir dastur va xizmat ko‘rsatishni namoyish etish jarayonidir. Unda xaridor yoki mijoz mahsulot va xizmat bilan uni xarid qilishdan oldin tanishishi mumkin.



**TELEGRAM-KANAL –** telegram ijtimoiy tarmog‘ida muallif va mualliflar jamoasi tomonidan bir mavzu yoki yo‘nalish doirasida ma’lumot va boshqa qiziqarli media materiallar e’lon qilib boriladigan kanal.

**OVERSAYZ –** zamonaviy urfga ko‘ra ataylab katta o‘lchamda tikiladigan kiyinish uslubi bo‘lib, unda libosning ba’zi joylari, masalan, yengi yoki etak qismi egasiga kattadek ko‘rinadi.



**MANGAL –** go‘shtni cho‘g‘ yoki olov ustida tashqi tomonlarini almashtirgan holatda pishirish uchun mo‘ljallangan maxsus metall moslama.



Gazetxonlarimizda mazkur so‘zlarning o‘zbekcha muqobiliga taklif bo‘lsa, telegram orqali **@jadidgamurojaat_bot** manziliga yuborishlarini so‘raymiz.